

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 103 (1702), 2026-yil 22-may, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



YXHT BILAN KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-may kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Feridun Sinirlio'g'luni qabul qildi.



Uchrashuvda YXHT bilan iqtisodiy-ekologik, siyosiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ochiq va konstruktiv muloqot yuksak darajaga chiqqani, O'zbekistonning YXHT va uning tizimidagi institutlar bilan hamkorligi izchil mustahkamlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tashkilot rahbariyati O'zbekistonga tashriflarni muntazam amalga oshirmoqda, YXHT DIIHB missiyalari mamlakatimizda saylov jarayonlarini monitoring qilishda faol ishtirok etmoqda.

Transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish, sud-huquq tizimini isloh qilish, gender tenglikni ilgari surish, inson huquqlarini himoya qilish va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish sohalarda amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalarning natijalari alohida qayd etildi.

Tomonlar kiberjinoatchilikka qarshi kurashish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda "yashil" kun tartibini ilgari surish kabi ustuvor yo'nalishlarda ham hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligini ta'kidladilar.

Hamkorlik bo'yicha yangi "yo'l xaritasi"ni tayyorlab, O'zbekistonda va YXHT doirasida bir qator qo'shma tadbirlarni o'tkazish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Mintaqaviy va xalqaro kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

QURBON HAYITI MUNOSABATI BILAN EHTIYOJMAND AHOINI QO'LLAB-QUVVATLASH CHORALARI KO'RIB CHIQUILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qurbon hayiti munosabati bilan ehtiyojmand aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, aholini ijtimoiy himoya qilish, jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyillar, ayniqsa, xalqimizga xos ezuq fazilatlarini mujassam etgan muborak Qurbon hayiti kunlarida yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Taqdimotda O'zbekiston musulmonlari idorasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda "Vaqf" xayriya jamoat fondi tomonidan ishlab chiqilgan takliflar haqida axborot berildi.

Ularga ko'ra, Qurbon hayiti munosabati bilan keng ko'lami tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming nafar bolada jarrohlik amaliyoti o'tkazish, 2,3 ming nafar onkologik, gematologik va onkogematologik tashxisi qo'yilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, davolash va jarrohlik amaliyotlari, shuningdek, kamida 350 nafar bemorda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotlarini o'tkazish xarajatlarini qoplash ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratiladi. 8 ming nafardan ziyod yetim va ota-ona

qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan ota-onalar farzandlarining omonat hisobvoraqlariga 200 dollar miqdorida pul mablag'lari o'tkazib beriladi.

Bundan tashqari, 500 ta masjidda aholi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida zamonaviy tahoratxonalar qurish, rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash, shuningdek, joylarda qabristonlarni obod qilish ishlari amalga oshiriladi.

Davlat ta'minotidagi oilalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar oziq-ovqat to'plamlari bilan ta'minlanadi.

Mazkur chora-tadbirlar "Vaqf" xayriya jamoat fondiga ajratiladigan 690 milliard so'm mablag' hisobidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalari uchun ehson dasturxonlari yozish, ziyoratgohlar va diniy ta'lim tashkilotlarida qurbonlik tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash, bemorlarni davolash va bolalarga ko'mak ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlar shaffof hamda manzilli tashkil etilishi zarurligini ta'kidladi va mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

O'ZBEKISTONLIK HOJILAR XALQIMIZNI DUO QILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqot qildi.

Subhat muborak Qurbon hayiti arafasida, yurtdoshlarimiz Haj amallarini ado etayotgan qutlug' kunlarda bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari muftiy hazratlari orqali muqaddas Makka shahrida bo'lib turgan barcha hojilarimizni Qurbon hayiti bilan samimiy tabriklab, ularning elu yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, yoshlarimizning baxtu saodati yo'lida qilayotgan ezuq duo va iltijolari qabul bo'lishini tiladi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda har yili 15 ming nafardan ziyod vatandoshimiz muborak Haj safariga bormoqda. Bu yil yana bir xayrli tashabbus amalga oshirilib, Vatan va xalq manfaatini yo'lida sidqidildan xizmat qilgan mehnat faxriylari, ularning oila a'zolari, mahalla faollari, nuroniylar hamda kam ta'minlangan oilalar vakillaridan iborat 100 nafar yurtdoshimiz ilk bor davlat hisobidan Haj safariga yuborildi.

Prezidentimiz ziyoratchilarimizning salomatligi va kayfiyati haqida so'radi, ibodatlarini bajarishi uchun tashkiliy ishlarning borishi bilan qiziqdi.

Muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar Makka va Madina shaharlarida ziyoratchilarimiz uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani, tashkiliy ishlar uyushqoqlik bilan o'tayotganini ta'kidladi. Bundan qalbidan shukronalik hissi jo'shgan yurtdoshlarimiz muqaddas joylarda turib, Yarategandan mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini so'rab duolar qilayotganini qayd etdi.

Subhatda mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar xalqimiz qalbi, ma'naviyati va ma'rifatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aytib o'tildi. Imom Buxoriy majmuasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi kabi yaqinda foydalanishga topshirilgan maskanlar ulug' ajdodlarimizning bebaho merosini keng targ'ib etishga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Kuni kecha Qurbon hayitini yurtimizda o'zgacha fayz va shukuh bilan nishonlash bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Muborak ayyomni nishonlash bilan bog'liq xayru saxovat va muruvvat tadbirlari ham amalga oshiriladi. Jumladan, ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, 10 mingdan ortiq bolalarga murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish, 2 mingga yaqin og'ir kasallikka chalingan yurtdoshlarimizni davolash uchun qo'shimcha mablag'lar ajratiladi. Masjid va qabristonlarni obod qilishga ham alohida resurslar yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari hayotda ko'pni ko'rgan, duogo'y hojilarimiz yurtga qaytgach, islom ma'rifati va sog'lom e'tiqodni xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga teran yetkazishda, mahallalarda mehr-oqibat, hamjihatlik va ma'naviy muhitni mustahkamlashda namuna bo'lishlariga ishonch bildirildi.

Subhat yakunida Prezidentimiz barcha hojilarimizga salom yo'llab, ularning savobli amallari qabul bo'lishini, yurtimizga sog'omon qaytishlarini tiladi.

O'ZA

HAYIT — KATTA BAYRAM, HAR QADAMDA SHODIYONA



2

BUYUK MILLIY O'ZANGA QAYTISH

YOSHARAYOTGAN ILMIY MUHITGA YANGI KUCH VA FIKR, O'ZGACHA NAFAS KIRIB KELMOQDA

O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, O'zbekiston Qahramoni, akademik Shavkat AYUPOV bilan "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbatlari



— Keyingi yillarda yurtimizda ilm-fanga, olimlarimiz tadqiqotlariga juda katta e'tibor qaratilayotir. Ilmiy salohiyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yangi avlod tadqiqotchilarini rag'batlantirish borasida keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, xalq iborasi bilan aytganda, fanimiz "yosharib", uning safiga yangi kuch, yangi fikr va yangi nafas kirib kelmoqda. Suhbatimizni aynan shu yo'nalishdagi o'zgarishlar tahlilidan boshlasak.

— Darhaqiqat, so'nggi o'n yilda olimlar hayotida, umuman, milliy ilm-fanimiz taqdirida chuqur va tizimli o'zgarishlar yuz berdi. Jamiyat taraqqiyoti ilgama munosabat bilan chambarchas bog'liq. Agar ilm e'zozlansa, taraqqiyot mustahkam bo'ladi, agar e'tibor susaysa, rivojlanish sur'ati sekinlashadi.

Taxminan 2000-yillarga kelib, Fanlar akademiyasiga va umumiy ilm-fan sohasiga e'tibor muayyan ma'noda susayganini ko'ramiz. Mazkur jarayonning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri moliyalashtirish tizimidagi o'zgarishlar edi. 2000-yilga qadar Fanlar akademiyasiga qarashli institutlar va olimlar to'g'ridan to'g'ri davlat byudjeti hisobidan ta'minlanardi.

Biroq keyinchalik yangi tizim joriy qilinib, moliyalashtirish loyihalari asosiga o'tkazildi. Ya'ni ilmiy jamoa innovatsiya grantlarini yutib olsagina, moliyaviy ta'minotga ega bo'lardi. Bu, bir qarashda, raqobat muhitini yaratishga xizmat qilgandek tuyulsa-da, amalda qator murakkab muammolarni ham keltirib chiqardi.

Masalan, bir institutda o'nga yaqin laboratoriya va shuncha ilmiy maktab mavjud bo'lsa, ularning

taqdiri loyiha yutish yoki yutmasslikka bog'liq bo'lib qoldi. Loyiha yutib olganlar moliyalashtirildi, yuta olmagani esa qiyin ahvolda tushdi.

Natijada ko'plab ilmiy muassasalarda qisqartirishlar boshlandi. Chunki loyiha tanlovlarda muayyan darajada subyektiv omillar mavjud edi. Kimdir tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyati bilan ko'proq grant yuta oldi, kimdir esa sof ilm bilan shug'ullanib, bu jarayonda chetda qolib ketdi. Shular ta'sirida ayrim institutlar sezilarli darajada qisqardi. Ilmiy xodimlar soni ham keskin kamaydi: agar avval Fanlar akademiyasi tizimida 4-5 ming atrofida tadqiqotchi faoliyat yuritgan bo'lsa, bu raqam keyinchalik qariyb ikki barobar kamaydi.

Qisqartirishdan esa tabiiy ravishda avval yoshlar jabr ko'rdi. Chunki katta ilmiy darajaga

ega mutaxassislar saqlab qolinar, ilmiy yo'lini endi boshlagan yoshlar esa tizimdan chetlashtirilardi. Bu fanning "qarishi"ga, ya'ni yoshlar ulushi keskin kamayishiga olib keldi. Vaqt o'tishi bilan Fanlar akademiyasi ko'proq yoshi ulug' olimlar jamlangan muassasaga aylanib qoldi.

Agar 1995-yilda akademiya a'zoligiga saylov bo'lib o'tgan bo'lsa, keyingi saylov faqat 2017-yilga kelibgina o'tkazildi. Ya'ni qariyb yigirma ikki yil davomida jarayon to'xtab qoldi.

— Uzoq yillar davomida akademiklar saylovlari o'tkazilmagani, ular soni qisqarib borgan ilmiy salohiyatning yuzaga chiqishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

— Albatta, ilm-fan taraqqiyotida yoshlarning o'rni beqiyos. Chunki inson yoshi ulg'aygan sari tajriba ortiradi, ammo har kim ham yetmish yoshdan keyin faol ilmiy izlanish qilishi oson emas. Katta avlod vakillari rahbarlik qilishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ilmiy maktab yaratishi mumkin, lekin yangi g'oya va qarashlar ko'pincha yoshlar qalbidan paydo bo'ladi.

Shu bois, har qanday ilmiy muhitda avlodlar uyg'unligi zarur. Ilmiy rahbarim, akademik Sarimsoqov bunday degan edi: "Agar ilmiy jamoada faqat qariyalor bo'lsa, bu — tragediya, faqat yoshlar bo'lsa, bu — komediya, agar barcha avlod vakillari jam bo'lsa, bu simfoniya". Bu juda chuqur falsafiy fikr. Chunki ilm bir vaqtning o'zida tajriba va shijoat, sabr va izlanish, an'ana va yangilik uyg'unligidir.

Munosabat

Yurtimizda bayramlar ko'p, shodiyonalar bisyor.
Har bir ayyomning o'z shukhi bor. Illo, Qurbon hayitining fayzi, futuhi,
shodligi, xursandchiligi o'zgaradi. Chunki bu bayram har yili Prezidentimizning
"Muborak Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida butun yurtimiz
bo'ylab keng nishonlanadi.

HAYIT – KATTA BAYRAM,
HAR QADAMDA SHODIYONA

2026-yil 22-may, 103-son

Joriy yil 20-may kuni qabul qilingan qarorga binoan, bu yilgi Qurbon hayiti "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oyani chuqur qaror topirishda, mehruvuvvat, xayr-u saxovat ishlari yana ham keng ko'lam kasb etishida muhim huquqiy asos bo'ladi.

Muborak Qurbon hayitini har yilgidan ko'ra o'zgaradi, ko'tarinki nishonlanayapmiz. Chunki bu yil yurtimizda turli sohalarda fidoyilik ko'rsatib mehnat qilgan va qilayotgan 100 nafar yurtdoshimiz "Prezident hojisi" sifatida islomning beshinchi ruknini mukammal ado etyapti. Bunday ezgu ish tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitiladi.

Qurbon hayiti butun islom ummati uchun juda katta bayram. Alloh taolo bu kunda bizni hayit namozini o'qishga, qurbi yetgan kishilarni esa qurbonlik qilishga buyurgan. Qur'oni karimda marhamat qilinadi: "Bas, Rabbingiz uchun (besh vaqt yoki Qurbon hayiti uchun) namoz o'qing va (tuya) so'yib qurbonlik qiling!" (Kavsar surasi, 2-oyat).

Shuningdek, qurbonlik haqida Baro ibn Oziy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: "Darhaqiqat, bugungi kunda avval boshlaydigan ishimiz Qurbon hayiti namozini o'qish, so'ngra (uyalarimizga) qaytib qurbonlik qilishdir. Kim shunday qilsa, demak, u sunnatimizga muvofiq ish qiladi. Kim hayit namozidan oldin so'ysa, u qurbonlik emas, balki o'z ahli uchun taqdim qilgan go'shtdir" (Imom Buxoriy rivoyati).

Faqihlarimiz qurbonlikning istilohiy ma'nosini ta'riflab, "Qurbonlik bu — maxsus



Abduqahhor domla YUNUSOV,
Toshkent shahri bosh imom-xatibi

hayvonni maxsus vaqtda so'yishdir", deganlar. Qurbonlik shariatga ikkinchi hijriy sanada kiritilgan. Hanafiy mazhabi bo'yicha qurbonlik qilish vojibdir. Qurbonlik qilish hur, balog'at yoshiga yetgan, oqil, muqim, ya'ni safarda bo'lmagan va zakot nisobiga ega musulmon shaxsga vojib bo'ladi. Qurbonlik qilishning vaqti hayit kuni tong otishi bilan kiradi va hayitning uchinchi kuni quyosh botishi bilan tugaydi. Qurbonlik hayit namozi o'qib bo'lingach qilinadi.

Qurbonlik go'shtining uchdan birini oila ahliga, uchdan birini go'shnilariga, qolganini muhojirlarga tarqatish mustahabdir. Hammasini faqirlarga bersa yoki oilada ko'pchilik bo'lsa, uyda qoldirsa ham bo'ladi. Terisini sotish yoki qassobning xizmat haqiga berish joiz emas. Mabodo sotilsa, puli kambag'allarga ehson qilinishi kerak.

Qurbon hayiti — katta bayram. Bu kuni yaqinlarimizni yo'qlab, ularning holidan xabar olish, yoshi ulug'larni ziyorat qilish, muhojirlarga mehruvuvvat ko'rsatish, oilalarga xursandchilik ulashish va umuman, bayramning ko'rkiga ko'rk qo'shadigan solih amallar bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, bayramni azaga, musibatga, mahzunlikka aylantirmaslik zarur.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu kunda yanada mehribonroq, shafqatliroq bo'lar, yetim-yesirlarning boshini silar, qariyalar, kasalmandlar, kam ta'minlangan kishilardan xabar olib, ularning ko'ngillariga ham bayram shukuhini olib kirar edilar.

Biz ham har bir ko'ngilga bayram shukuhini olib kiraylik.

Qurbon hayitining qudlug' bo'lsin!

Johiliyat davrida Makka mushrikari qurbonlik qilib, go'shtini Ka'ba atrofiga osib, devorlariga qonini surtar va bu bilan Allohga yaqin bo'lamiz deb o'yilar edilar. Islom kelib, ko'plab insonlar hidoyat nuridan bahramand bo'lganlaridan keyin Alloh taolo qurbonlikdan ko'zlangan asosiy maqsad nima ekaniga musulmonlarning e'tiborini qaratib, quyidagi oyati karimasini nozil qildi: "Allohga (qurbonlik) go'shtlari ham, qonlari ham yetib bormas. Lekin u Zotga sizlardan taqvo yetar. Alloh sizlarni hidoyat qilgani sababli — U zotni ulug'lashlaringiz uchun — ularni sizlarga bo'yusundirib qo'ydi. Ezgu ish qiluvchilarga xushxabar bering!" (Haj surasi, 37-oyat).

Qurbonlik qilishdan maqsad bandaning Alloh taolo amriga bo'yusunishi va taqvosini namoyon etishidir. Demak, qurbonlik qiluvchi shaxs niyati to'g'ri, amaliy xolis Alloh taolo uchun qilgan bo'lishi lozim. Qolaversa, bu amalni bajarishda Alloh taoloning buyukligi va dinining ulug'ligi zohir bo'ladi.

Husayn ibn Ali roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim qurbonlikni chin ko'ngildan va savob umidida qilsa, u (qurbonlik) uning uchun do'zaxdan parda bo'ladi", dedilar (Imom Tabaroniy rivoyati).

Boshqa bir hadisda: "Odam bolasi qurbonlik kuni qiladigan amallarining ichida qon chiqarishdan ko'ra Alloh taolaga mahbubroq amal yo'q. Qurbonlikka so'yilgan jonivor qiyomat kuni o'z shoxi, tuyog'ini va yunglari bilan keladi. Qurbonlik qoni yerga tushmay turib, Alloh taoloning huzurida qabul bo'ladi. Shuning uchun mamnuviyat ila qurbonlik qilinglar", deyilgan (Imom Ibn Moja va Imom Termiziy rivoyati).

Qurbon hayiti — katta bayram. Bu kuni yaqinlarimizni yo'qlab, ularning holidan xabar olish, yoshi ulug'larni ziyorat qilish, muhojirlarga mehruvuvvat ko'rsatish, oilalarga xursandchilik ulashish va umuman, bayramning ko'rkiga ko'rk qo'shadigan solih amallar bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, bayramni azaga, musibatga, mahzunlikka aylantirmaslik zarur.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu kunda yanada mehribonroq, shafqatliroq bo'lar, yetim-yesirlarning boshini silar, qariyalar, kasalmandlar, kam ta'minlangan kishilardan xabar olib, ularning ko'ngillariga ham bayram shukuhini olib kirar edilar.

Biz ham har bir ko'ngilga bayram shukuhini olib kiraylik.

Qurbon hayitining qudlug' bo'lsin!



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

TEZKOR, ANIQ VA ORTIQCHA
QOG'UZBOZLIK DAN
XOLI DAVLAT XIZMATLARI

Bugungi gapi

Davlat xizmatlarini izchil rivojlantirish shunchaki ma'muriy islohot yoki elektron xizmat ko'rsatish tizimi emas. Bu, avvalo, mamlakatning imiji, insonlar bilan muloqot qilish salohiyatining muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Zero, bugungi zamonaviy dunyoda davlat xizmatlarining sifati tom ma'noda odamlarning kundalik turmush farovonligiga ta'sir etmoqda.

Qachonki, davlat xizmatlari tezkor, aniq va ortiqcha qog'uzbozlikdan xoli bo'lsa, insonning eng qimmatli boyligi — vaqti tejiladi. Uzun dan uzoq navbatlarda soatlab turish, turli ma'lumotnomalar yig'ish yoki birgina yumush uchun qayta-qayta turli idoralarga qatnashga hojat qolmaydi. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish, hujjat rasmiylashtirish, tibbiy yoki ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonida ortiqcha ovoragarchilikdan xalos bo'ladi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tub burilish nuqtasidir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda mazkur yo'nalish rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar buning yaqqol isboti. Bu o'zgarishlar davlat boshqaruvining mutlaqo yangi davri boshlanganini anglatadi.

Endilikda diqqat markazida muayyan bir idora yoki shaxslar emas, balki aholi va uning manfaatlarini turibdi. Bundan o'n yil avvalgi holatni eslasak, bugungi o'zgarishlar naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglaymiz. Oddiy bir ma'lumotnomani olishning o'zi ham ko'pincha odamni holdan toydirdi. Bu esa sansalorlik, shaffoflik yetishmasligi va korrupsiya holatlari uchun qulay muhit yaratayotgandir. Aholi murakkab ma'muriy tizimdan bezgan edi. Allaqachon vaziyatni tubdan o'zgartirish vaqti kelgandi.

Shu bois, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yildan bu yo'nalishda tizimli va izchil islohotlar boshlandi. Davlat xizmatlari markazlari, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda raqamli hukumat tizimi tashkil etilishi xizmatlarning yanada ochiq, tezkor va shaffofligini ta'minladi.



"Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili ushbu islohotlar asosini tashkil etdi. Davlat idoralari zarur ma'lumotlarni o'zaro mustaqil almashish tizimini yo'lga qo'ydi va natijada odamlarning idoralarda sarson bo'lishi, turli hujjatlar yig'ishiga ehtiyoj qolmadi.

Shuningdek, elektron xizmatlar joriy etildi, jarayonlar raqamlashtirildi. Xizmat ko'rsatish muddatlari qisqartirildi. Ma'muriy tartib-taomillar soddalashtirildi. "Yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatiladigan

xizmatlar qatori kengaytirildi. Natijada tizim yanada shaffof, tezkor va inson manfaatlariga xizmat qiladigan shaklga keltirildi.

Yana bir muhim jihat. Davlat xizmatlari rivoji adolatga ishonch ortishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zero, inson omili qancha kam bo'lsa, korrupsiya, subyektiv qarorlar va ma'muriy to'siqlar xavfi shuncha kamayadi. Raqamlashtirish jarayonlarning ochiq, oshkora bo'lishini ta'minlaydi. Hamma uchun bir xil qoidalar amal qila boshlaydi. Bu esa ishonch masalasidir. Odamlar sodda, tushunarli va barqaror mexanizmlarga ishonadi.

Bu masalaning yana bir muhim jihatini alohida qayd etib o'tish joiz. Zamonaviy davlat xizmatlari nafaqat qulaylik, balki ijtimoiy himoya vositasi hamdir. Keksa avlod uchun pensiya va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, yoshlar uchun ta'lim, grantlar va hujjatlarni tezkor rasmiylashtirish, tadbirkorlar uchun esa ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda iqtisodiy faollikni oshirish demakdir. Ya'ni samarali xizmatlar tizimi teng va keng imkoniyatlar muhitini yaratadi. Izchil rivojlanish islohotlarning eng muhim jihati. Har qanday raqamli transformatsiya jarayonlari tarqoq holda amalga oshirilsa, o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Bitta qulay portal yaratish yoki ayrim xizmatlarni onlayn shaklga o'tkazishning o'zi kifoya emas. Odamlar tizimga yaxlit holda baho beradi. Agar xizmatlardan biri besh daqiqada amalga ohsa, boshqasi esa haftalab vaqt va qog'uzbozlikni talab qilsa, ishonch qozonish uchun qilingan mehnat behuda ketadi. Shu sabab davlat uchun nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki inson manfaatlariga qaratilgan sodda va barqaror xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish ham juda muhimdir.

Mamlakatimizda ushbu sohani transformatsiya qilishga alohida urg'u berilmoqda. Xususan, o'tgan yil noyabr oyida O'zbekistonni 2030-yilga qadar "ortiqcha byurokratiyadan xoli hudud"ga aylantirish maqsadida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Byurokratiyani bartaraf etish — 2030" dasturi boshlangan. Shuning o'zi ham bu yo'nalishga naqadar katta ahamiyat qaratilayotganini dalolat beradi.

Ayni maqsadda Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi huzurida alohida loyiha ofisi tashkil etilgan. Dastur doirasida davlat organlari funksiyalarini 30 foiz qisqartirish, biznesga qo'yiladigan talablarni 20 foizgacha maqbullashtirish, elektron davlat xizmatlari ulushini 90 foizdan oshirish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbariga joriy yil 12-may kuni davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida

byurokratiyani qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan qilingan taqdimotda bu boradagi ishlar yana bir bor tahlil etildi.

— So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatlarini aholi va tadbirkorlar uchun qulay, tezkor va shaffof qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi, — deydi adliya vaziri Akbar Toshqulov. — Davlat xizmatlari ko'lamli 10 barobar ko'payib, 61 milliondan oshdi. Ularning 80 foizi onlayn shaklda ko'rsatilmoqda. Birgina 2025-yilning o'zida tadbirkorlikka oid 2 mingdan ortiq majburiy talab bekor qilindi. Shu bilan birga, sohada ortiqcha tartib-taomillar, qog'uzbozlik va takrorlanuvchi talablar hali ham saqlanib qolmoqda.

Taqdimotda davlat xizmatlarini "servis davlat" modeli asosida tubdan takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi. Bunda asosiy e'tibor davlat xizmatini birorta ortiqcha hujjat talab qilmasdan, tez, shaffof va qulay ko'rsatishga qaratiladi. Xususan, 783 ta davlat xizmatiga "nol byurokratiya" tamoyilini joriy etish taklif qilindi. Bu orqali 550 turdagi davlat xizmati elektron shaklga o'tkazilib, xizmat ko'rsatish bosqichlari 2 karra qisqaradi. 80 turdagi xizmat proaktiv va kompozit shaklga o'tkaziladi. Natijada aholining har yili turli idoralarga kelish uchun sarflanadigan 35 milliard so'mgacha transport xarajati tejiladi. Yana 80 turdagi xizmatni ko'rsatish muddati 2-3 karra qisqartirilib, o'rtacha muddat 13 kundan 6 kunga tushiriladi.



Umumiy hisobda byurokratiyani qisqartirish choralarini 2026-2030-yillarda iqtisodiyotni qo'shimcha 13 milliard dollarga o'stirish imkonini beradi.

Taqdimotda reestr.gov.uz yagona platformasi orqali davlat funksiyalari, majburiy talablar va davlat xizmatlari reyestrini yuritish, idoralarni faoliyatini "Bureaucracy radar" asosida baholash, sun'iy intellekt orqali tahlil qilish va "Biznes kalkulyator" orqali tadbirkorlar xarajatini hisoblash tizimini joriy etish taklif qilindi.

Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatlar o'rtasidagi raqobat faqat investitsiya yoki resurslar borasida emas, balki odamlarning turmush farovonligini oshirish yo'nalishida ham kechmoqda. Davlat xizmatlari esa raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanyapti. Insonning yaxshi yashashi, mehnat qilishi, biznes yuritishi va davlat organlari bilan muloqoti uchun qulay sharoit yaratilgan mamlakatda kuchli iqtisodiyot, barqaror jamiyat shakllanadi.

Davlat xizmatlarini rivojlantirishning eng katta natijasi aholining davlat idoralarga munosabati ijobiy o'tishidir. Davlat xizmat ko'rsatish vazifasini to'laonli ravishda bajarar ekan, insonlar o'zini shu jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida his eta boshlaydi. Islohotlarning strategik ahamiyati ham aynan shunda.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Islohotlar samarasi

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilib, eksport imkoniyatini kengaytirishga alohida e'tibor berilyapti. Bu, o'z o'rnida, aholi daromadini oshib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, Surxondaryo viloyatida yangi agrosanoat modeli shakllanib bormoqda.

Bunday yangilanishlar jarayoni esa xalqaro hamkorlarning ham qiziqishini kuchaytirmoqda. Masalan, Yaponiyaning yetakchi kompaniyalari vakillaridan iborat delegatsiya viloyatning sohadagi natijalari bilan tanishdi. Maqsad hamkorlikni yo'lga qo'yish va har ikki tomon uchun foydali kelishuvga erishishdir. Surxondaryo viloyatida esa xalqaro standartlarga javob beradigan loyihalar yil sayin ko'payib bormoqda.

Jumladan, Denov tumanida barpo etilayotgan "Denov agro star" majmuasi

istiqbolli loyihalardan. Qiymati 15 milliard so'mlik loyiha to'la quvvatda ishlay boshladi, yiliga 10 ming tonna limon va yer yong'oq mahsulotini saralab, qayta ishlab, qadoqlash va saqlash imkonini beradi. Ushbu manzilgacha limon mahsulotlari, yer yong'oqni qayta ishlab o'rqli tayyorlanayotgan oziq-ovqatlar, ularning sifati, qadoqlash va logistika jarayoni mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

— Bu yerda ishlab chiqarishdan tortib, mahsulotni qayta ishlab eksport qilishgacha bo'lgan yaxlit tizim yaratilgan. Bu loyiha to'la

ishga tushgach, soha uchun katta imkoniyatlar eshigi ochiladi. Yurtimizda Yaponiya bozoriga import qilishimiz mumkin bo'lgan mahsulotlar nihoyatda ko'p. Mutaxassislarimiz jalb etib, O'zbekistonning ichki ta'minot zanjirini qurishda hissa qo'shmoqchimiz. Maqsadimiz jahon bozori talabiga mos eksport tizimini yanada rivojlantirish, — deydi yaponiyalik mutaxassis Yusuke Noju.

Uzun tumanidagi "Uzun agro star" korxonasi ham sohada samarali faoliyat yuritmoqda. — Korxonamizda xurmo va anjir yetishtirish, saralash, quritish, qadoqlash va eksportga tayyorlash bo'yicha yaxlit tizim yo'lga qo'yilgan. Hududdagi agromarktda esa mahalliy dehqonlarga bog'dorchilik ilmi o'rgatilmoqda, — deydi "Uzun agro star" MCHJning marketing, eksport, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Otobek Xonxo'jayev.

Vohada qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar yetishtirish va aholi bandligini ta'minlash borasida ham muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Ana shunday

AGROSANOAT — INVESTITSIYA,
INNOVATSIYA VA EKSPORT UYG'UNLIGI

istiqbolli tashabbuslardan biri banan yetishtirishga mo'ljallangan zamonaviy issiqxonalar tashkil etishidir. Masalan, Sho'rchi tumani Obodon mahallasidagi 6,9 gektar yerda xuddi shunday zamonaviy issiqxonalar majmuasi barpo etilmoqda.

Umumiy qiymati 7 milliard so'mlik mazkur investitsiya loyihasi doirasida issiqxonalariga 14 ming tup banan ko'chatlari ekildi. Ayni paytda hududda 30 dan ziyod lot shakllantirilib, ularning 30 foizdan ortig'iga banan va papayga ko'chatlari ekildi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, har bir gektar issiqxonaga o'rtacha 2000 tup banan ko'chati joylashtiriladi. Bu bir gektardan yiliga uch marta hosil olish imkonini berib, o'rtacha 150 tonna mahsulot yetishtirishga zamin hozirlaydi. Shundan kelib chiqib, yangi tashkil etilayotgan issiqxonadan bir yilda ming tonnadon ortiq banan hosili olinadi.

Bugun Surxondaryo viloyatiga har yili taxminan 200 tonna banan mahsuloti import qilinadi. Mahalliy iqlimga moslashtirilgan banan navi kam mehnat va o'g'it talab qilishi, totli ekani bois, xaridorgiriligini hisobga olsak, loyiha qanchalik ahamiyatli ekani oydinlashadi.

Muhimi, loyiha tufayli 150 ta doimiy yangi ish o'rnini ochiladi. Davlat byudjetiga 2,3 milliard so'm qo'shimcha tushum tushib, 3,5 million dollarlik import mahsulot o'rnini bosiladi. Tumandagi "Hotamtoy", "Qoraariq" va "Bobotog" massivlari hududiga suv chiqarish orqali yana 1000 gektar yangi yerni o'zlashtirish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, Surxondaryo agrosanoati ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar bilan bozor talablariga moslashtirilgan bular sohani integratsiyalashgan yaxlit tizimga aylantirmoqda. Mazkur yangilanishlar mahsulot hajmi va sifatini birdek oshirib, bandlik, daromadini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangi O'zbekiston ruhi

BUYUK MILLIY O'ZANGA QAYTISH

YOSHARAYOTGAN ILMIIY MUHITGA YANGI KUCH VA FIKR, O'ZGACHA NAFAS KIRIB KELMOQDA

O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, O'zbekiston Qahramoni, akademik Shavkat AYUPOV bilan "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetolari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbat



Boshlanishi 1-betda

2012-yilda Matematika instituti direktori edim. Institutimiz Fanlar akademiyasi tarkibidan chiqarilib, Milliy universitet tasarrufiga o'tkazilgan edi. Afsuski, bu jarayonda qator yirik ilmiy muassasalar — Yadro fizikasi, Fizika-texnika kabi institutlar ham jiddiy o'zgarishlarga uchradi.

Bu muassasalar nafaqat ilmiy maktab, balki noyob texnik salohiyatga ham ega edi. Masalan, lazer qurilmalari, yadro reaktori kabi qimmatbaho va strategik ahamiyatga ega uskunalar mavjud bo'lgan. Afsuski, ayrim jihozlar chet davlatlarga berildi, reaktor esa boshqa tizimga o'tkazildi. Vaholanki, bu obyektlar har bir davlatda ham uchramaydigan noyob ilmiy infratuzilma edi. Bir vaqtlar Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan yadro reaktori aynan yurtimizda joylashgani ham bejiz emasdi. Bu, o'z navbatida, o'zbek fizika maktabining yuksak salohiyatidan dalolat berardi.

Yana bir misol — Parkentda barpo etilgan katta quyosh pechi. Bu inshoot dunyoda atigi ikki davlatda — O'zbekiston va Fransiyada mavjud, ilmiy-texnologik jihatdan nihoyatda muhim obyekt. Afsuski, muayyan vaqtlarda bu kabi noyob imkoniyatlardan to'liq foydalanilmadi.

2017-yildan boshlab davlatimiz rahbarining qator qaror va farmonlari qabul qilinib, sohada tub burilish yasaladi. Ilmiy institutlar qayta tiklandi, ularning maqomi va vazifalari qayta belgilandi. Matematika instituti ham yana Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarilib, o'zining tarixiy nomi va maqomiga ega bo'ldi. Bu, shubhasiz, ilm-fanga bo'lgan munosabatdagi tub burilish edi.

Albatta, infratuzilmani tiklash birinchi qadam, ega katta muammo esa kadrlar bilan bog'liq edi. Chunki o'tgan yillar davomida ko'plab iqtidorli olimlar chet elarga ketib qolgan, ayrimlari esa boshqa sohalarga o'tib ketgandi.

—2016-yil dekabr oyida Prezidentimizning akademiklar va olimlar bilan uchrashuvi jamiyatda katta aks sado berdi. Ayniqsa, bu ilmiy jamoatchilik uzoq kutgan voqea bo'ldi. Keyinchalik ko'plab muhim hujjatlar, jumladan, yaqinda O'zbekiston Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat doirasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

— Ha, bu haqiqatan ham nihoyatda muhim va tarixiy ahamiyatga ega qaror bo'ldi. Qaror, avvalo, Fanlar akademiyasining jamiyatdagi o'rni va rolini qayta belgilab berdi. Ilm-fan faqat nazariy izlanishlar bilan cheklanib qolmasdan, unga mamlakat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraldi. Qaror doirasida o'nga yaqin ustuvor yo'nalish belgilab olindi. Jumladan, zamonaviy bio va nanotexnologiyalar, sun'iy intellekt va kvant texnologiyalari yadroviy fan va radiatsion texnologiyalar, raqamli tabiat va toza suv, qayta tiklanuvchi energetika, ma'naviy meros kabi strategik sohalarga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa ilmiy izlanishlarning zamon talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qildi.

Eng muhim yangiliklardan biri — ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilganidir. Chunki amaliyot ko'rsatdiki, olimlar tomonidan yaratilgan ko'plab ixtiro va takliflar sanoatgacha yetib bormay qolar, ishlab chiqaruvchilar esa o'z muammolariga yechimni chet eldan izlashga majbur bo'lardi. Bu esa milliy ilmiy salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini anglatardi.

Shu bois, qarorda fan va sanoat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradigan maxsus kengash tuzish nazarda tutildi. Ushbu kengash Prezident Administratsiyasi huzurida faoliyat yuritib, tarkibiga yetakchi olimlar va sanoat vakillari kiritildi. Endi olimlar o'z ishlarni bevosita ishlab chiqaruvchilarga taqdim etadi, sanoat esa o'z muammolarini ochiq bayon qiladi. Agar o'zaro manfaatli kelishuvga erishilsa, loyihalarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan grantlar ajratiladi. Chunki har qanday ixtiro amaliyotga joriy etish uchun muayyan vaqt va qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Aslida, bunday tizim ilgari ham mavjud edi. Sobiq ittifoq davrida har bir yirik ishlab chiqarish



VIDEO QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING!

tarmog'ining o'z ilmiy-tadqiqot instituti bo'lib, u ilm va sanoatni bog'lab turuvchi asosiy bo'g'in vazifasini bajarardi. Keyinchalik bu tizim yo'qolib ketdi. Natijada bugungi kunda olimlar sanoatda qanday muammolar borligini to'liq bilmaydi, ishlab chiqaruvchilar esa ilmiy yechimni qayerdan topishni anglab yetmaydi. Qarorda aynan shu masalaga alohida urg'u berilgan bejiz emas.

Hujjatda yana bir muhim ko'rsatkich belgilab qo'yildi: Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlarining kamida 60 foizini yoshlar tashkil etishi lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun akademiyaga besh yil davomida har yili qo'shimcha 140-150 ta shart birligi ajratish belgilandi. Bu, o'z navbatida, yosh kadrlarni jalb qilish va ilmiy muhitni yangilashga xizmat qilmoqda.

— Ilmiy salohiyat masalasiga ham to'xtalib o'tsangiz. Aytaylik, o'n yillar avval ayrim tadqiqotlarda O'zbekistonning ilmiy salohiyati qancha ustun bo'lgan edi. Bu holatni qanday izohlash mumkin? Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarning hayotiyli, dolzarbligi va amaliy ahamiyati nuqtayi nazaridan fundamental va amaliy fanlar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklar haqida fikr bildirsangiz.

— Bu juda o'rinni va muhim savol. Ilm-fan tabiatan ikki yo'nalishga — fundamental va amaliy sohalarga ajratiladi. Ular o'rtasida aniq chegaraga yo'q, balki bir-birini to'ldirib boradigan, o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Fundamental fan haqiqatni izlash, tabiat va koinot qonunlarini anglashga qaratilgan chuqur tafakkur mahsuli bo'lsa, amaliy fan shu bilimlarni hayotga tatbiq etish vositasidir.

Ko'pincha jamiyat tez natija beruvchi tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu tabiiy, chunki iqtisodiyot va sanoatga tezkor yechimlar zarur. Biroq fundamental fanning qimmatli shundaki, uning samarasi darhol ko'rinmasligi mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan u butun sivilizatsiya taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Men buni ko'pincha matematika misolida tushuntiraman. Masalan, matematikada Yevklid geometriyasi mavjud. Unga ko'ra, bir to'g'ri chiziqdan tashqari joylashgan nuqta orqali faqat yagona parallel (ya'ni berilgan chiziq bilan kesishmaydigan) chiziq o'tkazish mumkin. Asrlar davomida olimlar bu qoidani isbotlashga uringan, ammo natijaga erisha olmagan.

XIX asrda esa Nikolay Lobachevskiy mazkur qarashni qayta ko'rib chiqib, "Bu isbotlanadigan teorema emas, balki aksioma bo'lishi kerak", degan xulosaga keldi va noyevklid geometriyasini yaratdi. Unda bir nuqta orqali cheksiz ko'p parallel chiziqlar o'tkazish mumkin. Keyinchalik Bernhard Riman yana bir yangi geometriyani taklif qildi — unda esa umuman parallel chiziqlar mavjud emas.

Bu nazariyalar yaratilgan paytda ularning amaliy ahamiyati tushunarsiz bo'lgan, hatto ba'zilar tomonidan "keraksiz" deb baholangan. Ammo vaqt o'tishi bilan bu g'oyalari butun fan va texnologiya rivojiga zamin yaratdi. Masalan, Riman geometriyasi Albert Eynshteyn tomonidan yaratilgan nisbiylik nazariyasida qo'llanildi. Lobachevskiy geometriyasi esa bugungi kunda sun'iy yo'ldoshlar orqali joylashuvini aniqlash — GPS texnologiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Misolardan ko'rinib turibdiki, fundamental fan ko'pincha o'z samarasini o'nlab, hatto yuzlab yillardan keyin beradi. Shuning uchun har qanday ilmiy g'oyani "hozircha foydasi yo'q" deb chetga surish kelajak imkoniyatlaridan voz kechish bilan barobar.

Ilmiy salohiyat masalasiga kelsak, bu faqat raqamlar bilan o'lchanadigan ko'rsatkich emas. U jamiyatning bilim darajasi, ilmiy muhit sifati, kadrlar tayyorlash tizimi va innovatsion fikrlash qobiliyatining uyg'unligidir. Agar mamlakatda ilmiy salohiyat yuqori bo'lsa, investorlar uchun ham muhim signal bo'ladi. Chunki har qanday investor yangi texnologiya olib kirishdan oldin bunday savol qo'yadi: "Bu yerdagi mutaxassislar yangi texnologiyani tushuna oladimi?". Agar javob ijobiy bo'lsa, u eng zamonaviy uskunalarini olib keladi. Aks holda, eski, samaradorligi past texnologiyalar bilan cheklanishi mumkin.

Shu ma'noda, ilm-fan nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy kuch hamdir. Bilimli jamiyatni aldash qiyin, chunki u har bir qarorni tahlil qiladi, har bir texnologiyani anglaydi va tanlay oladi. Ilmiy salohiyati yuqori mamlakat esa doimo raqobatbardosh bo'ladi.

— Yosh olimlar va umuman, sohaga kirib kelayotgan yoshlar haqida to'xtaladingiz. Bugungi kunda ularning salohiyatini yuksaltirish, ilmga jalb etish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

— Bu juda dolzarb savol. Chunki haqiqat shundaki, fan yoshlarisiz rivojlanmaydi. Ilm doimiy yangilanish, yangi qarash va yangi tafakkur demakdir. Bu esa, avvalo, yoshlar orqali

ishlash samarali. Chunki fikrlar to'qnashuvi, bahs-munozara va hamkorlik orqali haqiqatga yaqinlashiladi. Shogird esa nafaqat o'rganuvchi, balki ko'p hollarda ustoziga hamfikir, yelkadosh bo'ladi.

Olimning qanday bo'lishi ko'p jihatdan uning sohasiga ham bog'liq, albatta. Lekin barcha sohalar uchun umumiy bir haqiqat bor: olim, avvalo, o'z fanining fanati bo'lishi kerak. Ya'ni u ilmni kasb emas, balki hayot mazmuni sifatida qabul qilishi lozim. Ilmga muhabbat bo'lmasa, katta natijalarga erishish qiyin.

Shu bilan birga, olimda insoniy fazilatlar — kamtarlik, halollik, sabr-toqat va haqiqatga sadoqat bo'lishi shart. Chunki ilm yolg'onni qabul qilmaydi. Biror natijani sun'iy ravishda ko'rsatish yoki soxtalashtirish mumkin, ammo vaqt o'tib, haqiqat baribir yuzaga chiqadi.

Yana bir muhim jihat — shogird masalasi. Olimning o'rtidan uning ilmiy merosini davom ettiradigan avlod qolishi kerak. Agar olim o'zidan keyin maktab qoldirmasa, uning faoliyati muayyan ma'noda uzilib qolishi mumkin. Shuning uchun haqiqiy olim nafaqat kashfiyot qiladi, balki insonni tarbiyalaydi.

— Hozirgacha ilm-fan haqida gapirganimizda, asosan, markaziy tizimga urg'u berdik. Hududlarda ilm-fan rivoji qanday kechmoqda? Ayniqsa, viloyatlar va hatto tumanlarda universitetlar ochilayotgani qanday samara berishi mumkin?

— Bu juda muhim masala. Chunki ilm-fan faqat poytaxt doirasida qolib ketmasligi, butun mamlakat bo'ylab barqaror rivojlanishi kerak. So'nggi yillarda aynan shu yo'nalishda salmoqli ishlar qilindi. Xususan, Fanlar akademiyasining qator filiallari viloyatlarda tashkil etildi va ular mahalliy universitetlar bilan uzviy bog'landi.

Buning asosiy maqsadi — hududlardagi intellektual salohiyatni yuzaga chiqarish. Chunki har bir viloyatda iqtidorli yoshlar, malakali o'qituvchilar bor. Ularga faqat imkoniyat va ilmiy muhit kerak. Shu nuqtayi nazaridan, viloyatlardagi tajribali pedagoglar xohishiga qarab, akademiya tizimiga to'liq yoki o'rindoshlik asosida jalb qilmoqda. Natijada bugun viloyatlardan ham kuchli fan doktorlari va ilmiy kadrlar yetishib chiqmoqda.

Hududiy ixtisoslashuv ham muhim jihatlardan biri. Masalan, akademiyaning ayrim filiallarini muayyan yo'nalishlarga ixtisoslashtirish rejalashtirilgan. Jumladan, Termizda arxeologiya, Namanganda botanika, Samarqandda fizikaga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutilmoqda. Bu har bir hududning tabiiy va ilmiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Natijada shu sohalar qiziqigan iqtidorli yoshlar aynan o'z shahar manzillarida jamlanib, ilmiy maktablar shakllanadi.

— Keyingi yillarda olimlarimiz ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganish asosida xalqaro maydonda ham zamonaviy yutuqlar bilan o'z o'rini topmoqda. Bu borada qanday ishlar amalga oshirildi va yana qanday natijalar kutish mumkin?


— Darhaqiqat, bugun O'zbekiston olimlari xalqaro miqyosda tan olingan. Qator nufuzli ilmiy tuzilmalar, jumladan, Jahon fanlar akademiyasi kabi tashkilotlarga vatandoshlarimiz a'zo bo'lib, faoliyat yuritmoqda. Bu ham milliy ilm-fan salohiyatining xalqaro e'tirofidir.

Shuningdek, xorijlik olimlar bilan hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Qo'shma tadqiqotlar, ilmiy konferensiyalar va uchrashuvlar orqali tajriba almashinuvi kuchaymoqda. Bu jarayon nafaqat yangi bilimlar olish, balki milliy ilm maktablarini dunyoga tanitish imkonini ham beradi.

Gumanitar fanlar sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati misolida tarixchilar, sharqshunoslar, matnshunoslar va boshqa mutaxassislar ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy merosni o'rganish va targ'ib etishda samarali mehnat qilmoqda. Bu esa milliy o'zlikni anglash va ma'naviy merosni tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bugungi kunda ilm-fan sohasidagi islohotlar o'z samarasini bermoqda. Eng muhimi, bu jarayon uzluksiz davom etishi kerak. Chunki ilm bir kunlik emas, balki avlodlar mehnati bilan yaratiladigan buyuk qadriyatdir.

— Mazmunli suhbatdaging uchun katta rahmat!



Olimning qanday bo'lishi ko'p jihatdan uning sohasiga ham bog'liq, albatta. Lekin barcha sohalar uchun umumiy bir haqiqat bor: olim, avvalo, o'z fanining fanati bo'lishi kerak. Ya'ni u ilmni kasb emas, balki hayot mazmuni sifatida qabul qilishi lozim. Ilmga muhabbat bo'lmasa, katta natijalarga erishish qiyin.



namoyon bo'ladi. Shuning uchun eng birinchi vazifa yoshlarda ilmga qiziqishni shakllantirishdir. So'nggi o'n yillikda jamiyatimizda muhim bir o'zgarishni kuzataymiz: ota-onalar farzandlarini ilmiy qilishga, ularni zamonaviy fikrlaydigan inson etib tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratish boshladi. Buning asosiy sabablardan biri davlatimiz rahbari tomonidan ilm-fanga berilayotgan yuksak e'tibordir. Chunki jamiyatda qaysi soha qadrlansa, yoshlar aynan shu yo'nalishga intiladi.

ma'naviy namuna hamdir. Ilm nafaqat o'l mahsuli, u insonning ichki dunyosi, vijdoni va mas'uliyati bilan ham chambarchas bog'liq. Olimlar turlicha bo'ladi. Ayrimlari ilmiy jihatdan juda kuchli, katta natijalarga erishadi, ammo atrofida shogirdlar shakllanmaydi. Yana shunday olimlar borki, ular o'z bilim va tajribasini shogirdlariga sidqidildan o'rgatadi, ularni ilmiy izlanishga chorlaydi. Aynan shunday ustozlar atrofida ilmiy maktab shakllanadi. Ilmda yakkahokimlik emas, balki jamoa bo'lib

Nuqtayi nazar



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Sharh

2026-yil 22-may, 103-son

UMUMIY TARIX, MUSHTARAK MAQSADLAR VA TARAQQIYOT MAYDONI

Dilmurod ORTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Bugungi kunda jahonda murakkab geosiyosiy jarayonlar kechmoqda, iqtisodiy beqarorlik va ekologik muammolar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday global inqirozlar sharoitida mamlakatlar o'rtasidagi ishonchli hamkorlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Turkiy davlatlar tashkiloti nafaqat mintaqaviy muloqot platformasi, balki umumiy tarix, madaniyat va qadriyatlarga tayangan strategik hamkorlik instituti sifatida tobora mustahkamlanib borayotgani g'oyat muhim ahamiyatga ega.



Davlatimiz rahbari Turkiy davlatlar tashkilotining Turkiston shahridagi norasmiy sammitida ishtirok etib, dolzarb taklif va tashabbuslarni ilgari surgani Turkiy dunyo hamkorligi va hamjihatligini yanada kuchaytirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholamoqda. Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish mavzusida o'tkazilgan mazkur sammit bugungi kunning eng dolzarb masalalariga bag'ishlangani bilan e'tiborga molik. Zero, XXI asrda davlatlarning taraqqiyoti nafaqat tabiiy resurslar, balki raqamli texnologiyalar va innovatsion salohiyat bilan ham belgilanmoqda.

Ushbu sammit global geosiyosiy tebranshlar davrida mintaqamizning yangi qiyofasini belgilab beruvchi strategik platformadir. Bu jarayonni nafaqat siyosiy va iqtisodiy integratsiya, balki tarixiy adolat tiklanishi va milliy manfaatlarini jamoaviy himoyasi sifatida baholash mumkin.

Tashkilot so'nggi yillarda rasmiy uchrashuvlar doirasidagi tuzilma emas, balki amaliy natijalarga xizmat qilyotgan samarali maydonga aylandi. Buni Tashkilot doirasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan yuzdan ortiq tashabbuslarning aksariyati to'liq amalga oshirilgani yaqqol tasdiqlaydi. Bu Turkiy davlatlar o'rtasidagi ishonch, siyosiy iroda va mushtarak maqsadlar amalda ifodasini topayotgani ko'rsatadi. Eng muhimi, qabul qilinayotgan qarorlar qog'uzda qolib ketmayapti, xalqlar manfaatiga xizmat qilyotgan aniq loyihalarga aylanmoqda.

Ayniqsa, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalaridagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bugun Turkiy davlatlar o'rtasida transport yo'laklarini rivojlantirish, savdo hajmini oshirish, raqamli infratuzilmani shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotir. Bu nafaqat mintaqada davlatlari iqtisodiyotini mustahkamlash, yangi iqtisodiy bog'liqlikni yuzaga keltirishga ham xizmat qilyotir.

Mamlakatimiz uchun ham Tashkilot doirasidagi hamkorlik nihoyatda manfaatli hisoblanadi. Turkiy davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalar kuchayishi O'zbekistonning tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga to'liq mos keladi. Transport yo'laklari kengayishi va investitsiyaviy hamkorlik ortishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Turkiy xalqlarning hamjihatligi faqat bugungi siyosiy manfaatlar mahsuli emas. Turkiy xalqlar asrlar davomida o'xshash qadriyatlar, til, urf-odat va an'analar asosida shakllangan. Buyuk ipak yo'li sivilizatsiyasida turkiy xalqlar muhim o'rin tutgani, ilm-fan, madaniyat va davlatchilik sohalarida ulkan meros qoldirgani tarixdan yaxshi ma'lum. Shu ma'noda, mazkur Tashkilot tabiiy va tarixiy ehtiyoj sifatida maydonga chiqqan tuzilmadir.

Aytish joziki, Tashkilot tarixida 2022-yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan sammit alohida ahamiyat kasb etadi. Samarqand sammiti turkiy hamkorlikning mutlaqo yangi bosqichga

ko'tarilishida tarixiy burilish nuqtasi bo'lgandi. Aynan ushbu sammitda tashkilotning institutsional imkoniyatlari kengaydi. Iqtisodiy va transport bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi. Asosiysi, Samarqand ruhi turkiy davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va strategik sheriklikni yanada mustahkamladi.

So'nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyish etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Masalan, 2025-yilda davlatlarimizning umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va uning dinamikasi global o'sishdan ikki barobar yuqori bo'ldi. O'tgan yilning o'zida O'zbekistonning tashkilot mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foiz o'sdi.

Joriy yildan Turkiy investitsiya jamg'armasi operatsion faoliyatini boshladi, Markaziy banklar kengashi, Yashil moliyalashtirish bo'yicha turkiy kengashi ishi yo'lga qo'yildi. Bularning barchasi tashkilotning institutsional jihatdan tobora mustahkamlanib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Turkiston sammitining sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish mavzusiga bag'ishlangani bejiz emas. Binobarin, o'lkalimizda yashab o'tgan ulug' bobolarimiz Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek algoritmi, matematika,

astronomiya va fizika fanlari ravnaqiga beqiyos hissa qo'shib, shu tariqa hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun asos yaratgan.

Insoniyat yangi texnologik inqilob ostonasida turibdi. Sun'iy intellekt iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, xavfsizlik va davlatlarni birlashtirayotgan kuch umumiy beqiyos hissa qo'shib, shu tariqa hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun asos yaratgan.



astronomiya va fizika fanlari ravnaqiga beqiyos hissa qo'shib, shu tariqa hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun asos yaratgan.

davlat boshqaruvi kabi sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Turkiy davlatlarning mazkur sohada umumiy yondashuv va hamkorlik mexanizmlarini shakllantirishi kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Prezidentimizning ushbu nufuzli anjumandagi chiqishi nafaqat turkiy dunyo, balki butun mintaqada va insoniyat uchun muhim g'oya va tashabbuslarga boy bo'ldi. Har bir xalqaro anjumanda bo'lganidek, davlatimiz rahbari mazkur sammitda ham qator dolzarb va hayotiy tashabbuslarni ilgari surdi. Ular Tashkilotni madaniy-gumanitar muloqot platformasidan raqamli, texnologik va iqtisodiy integratsiyani yangi markaziga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Xususan, davlatimiz rahbarining Qozog'iston bilan tuzayotgan Qo'shma venchur jamg'armasiga tashkilotning barcha a'zolarini qo'shilishga chaqirig'i yoshlarning istiqbolli startaplari, innovatsion ishlanmalari, sun'iy intellektga asoslangan turli yechimlarini moliyalashtirish, mintaqada yagona innovatsion makon yaratishga xizmat qiladi.

Yassaviy tariqatining bag'rikenglik va ma'rifatarparlik g'oyalarni hamkorlikda chuqur o'rganish hamda keng tarqib etish taklifi esa jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, yoshlarni ezuq qadriyatlar ruhida tarbiyalash, turkiy xalqlarning umumiy ma'naviy merosi va madaniy yaqinligini yanada kuchaytirishga imkon beradi.

Umuman, ilgari surilgan tashabbuslarning aksariyati bugunning o'zida muayyan amaliy asoslarga ega. Bu esa O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida faol tashabbuskor va mintaqaviy intellektual markaz sifatidagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Yangi geosiyosiy sharoitda mazkur yondashuv nafaqat turkiy davlatlar, balki butun mintaqaning barqaror taraqqiyoti uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Bugun turkiy dunyo o'z ovozi va taraqqiyot modelini shakllantirish sari dadil qadam tashlamoqda. Muhimi, turkiy

“

So'nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyish etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Masalan, 2025-yilda davlatlarimizning umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va uning dinamikasi global o'sishdan ikki barobar yuqori bo'ldi. O'tgan yilning o'zida O'zbekistonning tashkilot mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foiz o'sdi.

”

Turkiston — Ahmad Yassaviy merosi bilan bog'liq, asrlar davomida turkiy xalqlarning ma'naviy markazi sifatida shakllangan tarixiy maskan. Aynan shu shaharda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlar XXI asrning eng muhim strategik mavzularidan biri — sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va texnologik hamkorlik masalalarini muhokama qilish uchun jam bo'ldi.

Sammitning Turkiston shahrida o'tkazilishi ramziy va siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki mazkur tadbir nafaqat umumiy tarixiy-madaniy meros, balki turkiy davlatlarning kelajak taraqqiyoti raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar bilan bevosita bog'liq ekanini namoyon qildi. Qadimiy sivilizatsiyalar chorhasida joylashgan shahar bu safar raqamli sivilizatsiya masalalarini muhokama qilingan yangi siyosiy muloqot maydoniga aylandi.

Ayniqsa, Prezidentimizning norasmiy sammitdagi nutqi mazkur jarayonning faqat texnologik emas, balki sivilizatsion ahamiyatga ega ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek,



Oybek QO'SHBOQOV,
Parlament tadqiqotlari instituti
bo'lim boshlig'i

korxonaga faoliyat yuritmoqda. 2017-2025-yillarda ushbu davlatlardan jalb qilingan investitsiyalar umumiy hajmi 11,5 milliard dollardan oshgan.

Sammit kun tartibiga sun'iy intellekt mavzusining olib chiqilishi bejiz emas. Chunki bugun sun'iy intellekt texnologiyalari jahon iqtisodiyotining yangi drayveriga aylanmoqda. Xalqaro prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib, sun'iy intellekt bozori qiymati 20

“

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot faqat dasturiy ta'minot yoki internet xizmatlari bilan cheklanmaydi. Kosmik infratuzilma, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va katta ma'lumotlar tizimi ham raqamli suverenitetning muhim qismi. Ushbu sohada hamkorlik qilish turkiy davlatlarga agrar monitoring, iqlim kuzatuv, logistika va xavfsizlik tizimlarida yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

”

turkiy dunyo integratsiyasi xalqlarimiz taqdiriga davldor uzoq muddatli strategik masalaga aylanmoqda.

Prezidentimiz nutqida bugungi geosiyosiy vaziyatning murakkabligi, xalqaro munosabatlarda ishonch taqchilligi kuchayib borayotgani va global institutlar ta'sirining pasayishi alohida qayd etildi.

trillion dollarga yaqinlashishi mumkin. Algoritmik o'rganish texnologiyalari, katta ma'lumotlar tahlili, vizual ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari va intellektual boshqaruv mexanizmlari davlat boshqaruvidan tortib, tibbiyot, ta'lim, moliya va qishloq xo'jaligigacha bo'lgan sohalarini tubdan o'zgartirmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI
SKANER QILING!

Bu esa turkiy davlatlarning o'zaro hamjihatligi va umumiy pozitsiya shakllantirishini tarixiy zaruratga aylantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Turkiston sammiti faqat navbatdagi diplomatik tadbir emas, balki turkiy davlatlarning yangi raqamli geosiyosiy makonda o'z o'rini belgilashga qaratilgan strategik muloqoti sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti so'nggi yillarda mintaqaviy hamkorlikning yangi institutsional modeli sifatida shakllanib bormoqda. 2021-yili Istanbul sammitida rasman tashkil etilgan ushbu tuzilma bugun Qozog'iston, O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon va Qirg'izistonni birlashtirgan muhim xalqaro platformaga aylandi. Turkmaniston va Vengriya kuzatuvchi davlat sifatida ishtirok etmoqda.

TDT bugun barqaror rivojlanish sur'atini namoyon etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Xususan, 2025-yilda davlatlarning umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va o'sish sur'ati global iqtisodiy o'sishdan ikki barobar yuqori bo'ldi. Tashkilotga a'zo mamlakatlar jami 170 milliondan ortiq aholi, ulkan tabiiy resurslar, katta ichki bozor va muhim tranzit imkoniyatlariga ega makonni qamrab olgan. Bu makon Yevrosiyo geoiqtisodiy xaritasida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda tashkilot doirasidagi iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahillarga ko'ra, 2025-yilda tuzilmaga a'zo mamlakatlarning umumiy tashqi savdo aylanmasi 1,2 trillion dollardan oshgan. Prezidentimiz ham o'tgan yilning o'zida O'zbekistonning tashkilot mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foiz o'sib, deyarli 11 milliard dollarga yetganini ta'kidladi. Bu raqam turkiy davlatlar mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatida tobora muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, a'zo mamlakatlarga eksport qiymatini yana 2,7 milliard dollarga oshirish imkoniyati mavjud.

2026-yil aprel holatiga ko'ra, yurtimizda TDT mamlakatlari kapitali ishtirokida 4500 dan ortiq

Prezidentimiz nutqida sun'iy intellekt rivoji turkiy xalqlarning boy ilmiy merosi bilan bog'landi. Davlatimiz rahbari Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi ulug' ajdodlarimizning algoritmi, matematika va astronomiya sohalaridagi kashfiyoti bugungi sun'iy intellekt taraqqiyoti uchun poydevor bo'lganini ta'kidladi. Bu yondashuv juda muhim. Chunki raqamli taraqqiyot faqat texnologiya import qilish yoki dasturiy mahsulot ishlab chiqish bilan cheklanmaydi. U sivilizatsion xotira, intellektual an'ana va ilmiy meros bilan ham chambarchas bog'liq.

TDT davlatlari uchun mazkur jarayon ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan esa global raqamli raqobat sharoitida texnologik qaramlik xavfi ham kuchaymoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Turkiston sammiti turkiy davlatlarning raqamli kelajak borasida umumiy pozitsiya shakllantirishga intilyotganini ko'rsatdi. Sammitda Prezidentimiz ilgari surgan eng muhim tashabbuslardan biri "Raqamli turkiy yo'lak" konsepsiyasi bo'ldi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekiston so'nggi yillarda xorijiy investorlar bilan data markazlar barpo etishga 6 milliard dollar sarmoya jalb etmoqda. Bu jarayon mamlakatimizni mintaqaviy raqamli xabga aylantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyani muhim qismidir.

Raqamli turkiy yo'lak konsepsiyasi esa turkiy davlatlar data markazlarini yuqori tezlikdagi aloqa kanallari bilan bog'lashni nazarda tutadi. Bu tashabbusning geoiqtisodiy ahamiyati juda katta. Chunki XXI asrda raqobat neft-gaz yoki sanoat quvvatlari bilan birga ma'lumotlar infratuzilmasi, serverlar, bulutli texnologiyalar va raqamli platformalar ustidan nazorat uchun ham kuchaymoqda. Agar tuzilmaga a'zo davlatlar o'zaro integratsiyalashgan raqamli infratuzilma yaratma olsa, Yevrosiyo yagona raqamli makon shakllanishi mumkin.

Davlatimiz rahbarining Toshkent shahrida Texnologiyalar forumini o'tkazish tashabbusi ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu forum turkiy davlatlarning AT kompaniyalari, startaplari, olimlari va investorlarini yagona maydonda birlashtiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston turkiy davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va raqamli hamkorlik jarayonlarining muhim ishtirokchisiga aylandi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt sohasidagi islohotlar mamlakatimizning mintaqaviy texnologik markaz sifatidagi o'rini mustahkamlamoqda.

Prezidentimizning Islom sivilizatsiyasi markazi negizida TURKSOY va Turkiy akademiyasi bilan birgalikda tarixiy-madaniy manbalarni yagona katta ma'lumotlar platformasiga jamlash taklifi ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu loyiha amalga oshsa, turkiy xalqlarning ilmiy, adabiy va madaniy merosi raqamli shaklda yagona intellektual ekotizimga aylinishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot infratuzilma yoki serverlar bilan emas, malakali kadrlar bilan quriladi. Shu nuqtayi nazardan, kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab sun'iy intellekt va AT sohasi bo'yicha davlat grantlari 35 foiz oshirilishi rejalashtirilgan. "Yangi O'zbekiston" universiteti negizida sun'iy intellekt klasterini tashkil etish, sohaviy murabbiylar tayyorlash va raqamli sohada 1 million mutaxassis yetishtirish vazifasi qo'yilgan.

Prezidentimiz sammitda "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi haqida ham alohida ta'xtladi. Hozirga qadar mazkur loyiha orqali 1 milliondan ortiq yosh boshlang'ich ko'nikmaga ega bo'ldi. Bu raqam O'zbekistonning faqat texnologiya import qiluvchi emas, balki raqamli iqtisodiyot uchun inson kapitali tayyorlaydigan davlatga aylantirish vazifasini anglatadi.

Davlatimiz rahbarining yoshlar startaplari va innovatsion ishlanmalarini moliyalashtirish uchun Qozog'iston bilan qo'shma venchur jamg'armasi tuzilyotgani haqidagi ma'lumoti ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayon mintaqada texnologik kapital bozorini shakllantirish uchun muhim qadam bo'lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot qanchalik kengaysa, kibernetika bilan shunchalik murakkablashadi. Shuning uchun yagona kibernetika standartlari, tekzor axborot almashuv mexanizmlari va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo'yicha muvofiqlashtirilgan siyosat zarur. Prezidentimiz sammitda Kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo'yicha turkiy alyans tuzish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbusning ahamiyati juda katta. Chunki bugun kibernetika masalasi faqat texnik muammo emas. U milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va davlat suvereniteti bilan bevosita bog'liq. Bugun dunyoda kibernetika energetika tizimlari, bank infratuzilmasi, transport tarmoqlari va davlat ma'lumotlar bazalariga qarshi qaratilmoqda. Shunday sharoitda turkiy davlatlarning alohida-alohida harakat qilishi yetarli bo'lmaydi. Yagona raqamli xavfsizlik makonini shakllantirish strategik zaruratga aylanmoqda.

Sammit doirasida muhokama qilingan muhim tashabbuslardan biri OTS-SAT ilmiy-ta'limiy sun'iy yo'ldoshi loyihasi bo'ldi. U turkiy davlatlarning kosmik texnologiyalar sohasida hamkorlik qilish imkoniyati kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot faqat dasturiy ta'minot yoki internet xizmatlari bilan cheklanmaydi. Kosmik infratuzilma, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va katta ma'lumotlar tizimi ham raqamli suverenitetning muhim qismi. Ushbu sohada hamkorlik qilish turkiy davlatlarga agrar monitoring, iqlim kuzatuv, logistika va xavfsizlik tizimlarida yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Turkiston sammitining norasmiy formatda o'tkazilgan ham e'tiborga molik. Bunday format davlat rahbarlariga qat'iy diplomatik protokollardan xoli ravishda strategik masalalarini muhokama qilish imkonini beradi. Ko'p hollarda aynan norasmiy sammitlarda keyinchalik yirik siyosiy va iqtisodiy qararlarga asos bo'ladigan g'oyalari shakllanadi. Shu ma'noda, Turkiston sammiti TDning yangi rivojlanish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatdi.

Prezidentimiz Turkiston deklaratsiyasi "Turkiy dunyo nigohi — 2040" konsepsiyasida belgilangan maqsadlarga erishish yo'lidagi muhim qadam bo'lishini ta'kidladi. Bu deklaratsiyaning haqiqiy ahamiyati esa amaliy mexanizmlar, qo'shma investitsiyalar va institutsional islohotlar bilan belgilanadi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan "Raqamli turkiy yo'lak", Kiberxavfsizlik alyansi, umumiy "katta ma'lumotlar" platformasi, yoshlar startaplari qo'llab-quvvatlash va iqlim monitoring tizimi kabi tashabbuslar aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Eng muhimi, turkiy davlatlar raqamli kelajakni tashqi texnologiyalar importi orqali emas, balki umumiy strategiya, intellektual hamkorlik va qo'shma innovatsiyalar asosida qurishga intilyotganini namoyon qildi. Bu esa Turkiston sammitining haqiqiy turkiy ahamiyatini belgilaydi. Chunki XXI asrda raqobat endi faqat hududlar yoki resurslar uchun emas, balki intellekt, ma'lumot va texnologiyalar uchun kechmoqda. Turkiy dunyo esa ushbu yangi raqobatda o'z ovozi, o'z strategiyasi va o'z raqamli sivilizatsion makonini shakllantirishga harakat qilmoqda.

Mulohaza

“O'Z TILIGA SADOQAT BU – VATANIY ISHDIR”

O'zbek tili asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan ma'naviy xazinadir. Bu xazinani asrash hamda avlodlarga sofligicha yetkazish uchun har birimiz mas'ulmiz. To hayot ekanimiz, bu mas'uliyatni sharaf deb bilmog'imiz shart.

Ona tilimiz oldidagi qarzimiz xuddi onamiz oldidagi qarzdek benihoyadir. Tilimizda muqaddas qadriyatlarimiz, qadim an'analarimiz, ma'naviyatimiz, dunyoqarashimiz, millatimiz ruhi yashaydi. U qalbmiz sadosi, borlig'imiz ko'zgusi. Ona tilimiz bizni eng qadim ajdodlarimiz bilan bog'lab, kim ekanimizni, tomirlarimiz qaysi daryolardan suv ichganini eslatib turadi. Asrlar bo'roni, yillar silsilasidan omon chiqishning yo'li bitta — tilni yo'qotmaslik.

“Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyna hayoti bu — uning milliy tili va adabiyotidir”, deydi Abdulla Avloniy. Abdulla Qodiriy esa tilimizni kambag'al deguvchilarga bunday javob bergan: “O'zbek tili kambag'al til emas, balki o'zbek tili kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar”.

Mirtemirning “Ona tilim” she'rini qayta-qayta o'qir ekanisiz, ko'z o'ngingizga o'zbekning bag'ridek keng yobonlari, cheksiz bog'u bo'stonlari, serhosil dalalari, oqar daryolari, onalar ayrgan allalari, jon tomiringga singib ketgan buloqlari keladi.

Faqat o'zbek tilida daryolar asrlondek ayqiradi. Faqat o'zbek tilidagi dostonlarda maridar Alpomishdek or talashib maydonga chiqadi. O'zbek tilining muqaddasligi Oybarchin bo'lib sadoqatdan so'zlaydi.

Dunyoning eng yuksak minbari bo'lgan BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida davlatimiz rahbari o'zbek tilida ma'ruza qilgan lahzar tariximizga oltin harflar bilan yozildi. Mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutgan unutilmas ma'ruza o'zbek tilida yangrashi tilimizning jahon maydonidagi salohiyatini, munosib o'rni, obro'-e'tiborini, asriy orzu va armonlarini namoyishi bo'ldi.

“Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”, degan edi Prezidentimiz o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganing o'tiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan yurtimizda barcha sohalarida davlat tilining jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek tili davlat tili sifatida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotimizda faol qo'llanib, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda.



Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida yo'qolib ketish arafasida turgan folklorshunoslik yo'nalishi qayta tiklandi. Dialektologiya, turkologiya, matnshunoslik kabi unutilayotgan yo'nalishlar ochilib, ilmiy



ishlar uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyoti o'rganish bo'yicha o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar, risola hamda monografiyalarni nashr etilib, ilmiy anjumanlar o'tayotgani ona tilimizning istiqbolidan dalolat beradi.

Adabiyotimizning buyuk vakillari, o'zbek tilining jonkuyarlariga Milliy bog' hududida tashkil etilgan Adiblarni xiyobonida qo'yilgan yodgorliklar poyida o'tayotgan adabiy kechalar, yangi asarlar taqdimotlari, ilmiy-amaliy simpoziumlar ona tilimiz va milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonada o'tayotgan kitob taqdimotlariga, adabiy uchrashuvlarga mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalarida huzurida tashkil etilgan “O'zbek tilining do'stlari” klublari a'zolari ham taklif etilayotgani tilimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbek tilidagi romanlar, qissalar, hikoyalar, dostonlar, g'azallar, she'rlar, ertaklar, maqollar orqali qadim tarixni o'rganib, qayerdan kelayotganimizni anglaymiz. Qo'shiqlar, laparlari, aytishuvlar, termalar bilan tilimizni, ongimizni, o'y-xayollarimizni nurlarga chulg'aymiz. Shu tilda orzu-umidlarimizni bayon etamiz.

To'y g'ri, tilimizga e'tibor katta. Lekin hali muammolar ham yetarli. Zero, ona tilimiz oldidagi qarzimizni bir lahza bo'lsa-da unutishga haqqimiz yo'q. Eslab ko'raylik, 21-oktabr — o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun arafasida til haqidagi fikr mulohazalarimiz, OAVdagi chiqishlarimiz, bosma nashrlardagi muhokama, mulohaza, munosabatlarimiz qizigandan-qiziydi. Lekin til bayrami o'tishi bilan sekinlashadi.

Tilimizni asrash haqida gap ketganda, ko'pchiligimiz shahar va qishloqlarimiz, yo'llarimiz, devor-u darvozalarimiz peshlavahalarida ajnabiy so'zlar va yot tillardagi yozuvlar ko'payib ketgani, hatto ayrim joylarda o'zbek tilidagi yozuvlar orqa o'ranga o'tib, past qatarga tushib qolayotgani haqida achimib gapiramyiz. Aslida, bunday muammolar ko'p...

ixtisoslashgan maktablardagi o'zbek tili darslaridagi ma'lumotlar o'zbek tili maktablari darsliklaridagi ma'lumotlarga to'g'ri kelmasligi ham muammolar keltirib chiqarmoqda.

XX asr boshida olti — o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan alloma Is'hoqxon Ibratning quyidagi hikmatli so'zlarini unutmaylik:



“Bizning yoshlar, albatta, boshqa tili bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'rtiy qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat bu — vataniy ishdir”.

Hech bir jabhada tilga e'tiborsizlik kechirilmagligi kerak. Bugun davlat ro'yxatidan o'tib olib, o'z uyidan bosmaxona ochgan, g'ij-g'ij xatolar bilan “kitoblar” chop etayotgan “tadbirkor”larning bozori chaqqon. Xususiy nashrlarda chop etilayotgan asarlardagi qo'pol xatolar uchun kimdir javobgarlikka tortilmas, ular ustidan nazorat o'rnatilmas ekan, kitobdan yoppasiga bezish davom etadi.

O'zbek tili shevalari ko'pligi, jozibadorligi bilan olamda yagona. Shevalar ham til sandig'imizning xazinasi. Ming afsuski, shevalarimiz ham yo'qolib bormoqda. Shevalar yo'qlishi ham til fojiasidir.

Vodiyda shamchiroq'im, pahlavonim, ko'zgarvarim, vohoda mo'ng'im, oynam, dono qushim, aqljonim, aqlmizom, girgitonim, noritonim kabi sheva so'zlar unutilib bormoqda. Hozirgi yoshlar bu shevalarni bilmaydi ham, tushunmaydi ham. Qoraqalpog'iston, Xorazm tomonlariga xos bo'lgan shevalar shu qadar shirink, bunday durdona kalomlar faqat donoyu donishmandlar kamol topayotgan maskanlarda yangrashi aniq. Afsuski, qoraqalpog'cha,

“Bizning yoshlar, albatta, boshqa tili bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'rtiy qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat bu — vataniy ishdir”.

Hech bir jabhada tilga e'tiborsizlik kechirilmagligi kerak. Bugun davlat ro'yxatidan o'tib olib, o'z uyidan bosmaxona ochgan, g'ij-g'ij xatolar bilan “kitoblar” chop etayotgan “tadbirkor”larning bozori chaqqon. Xususiy nashrlarda chop etilayotgan asarlardagi qo'pol xatolar uchun kimdir javobgarlikka tortilmas, ular ustidan nazorat o'rnatilmas ekan, kitobdan yoppasiga bezish davom etadi.

O'zbek tili shevalari ko'pligi, jozibadorligi bilan olamda yagona. Shevalar ham til sandig'imizning xazinasi. Ming afsuski, shevalarimiz ham yo'qolib bormoqda. Shevalar yo'qlishi ham til fojiasidir.

Vodiyda shamchiroq'im, pahlavonim, ko'zgarvarim, vohoda mo'ng'im, oynam, dono qushim, aqljonim, aqlmizom, girgitonim, noritonim kabi sheva so'zlar unutilib bormoqda. Hozirgi yoshlar bu shevalarni bilmaydi ham, tushunmaydi ham. Qoraqalpog'iston, Xorazm tomonlariga xos bo'lgan shevalar shu qadar shirink, bunday durdona kalomlar faqat donoyu donishmandlar kamol topayotgan maskanlarda yangrashi aniq. Afsuski, qoraqalpog'cha,

Atoqli shoir va adiblarimiz nomidagi ijod maktablarida tahsil olayotgan iste'dodlarning o'z maktablari nomi bilan g'ururlanishini ular bilan shubhatlarda eshitib, qovonchga to'lamiz.

Muhammad Rizo Ogahiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroym Yusupov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarining o'quvchilari ehsiyotqan yutuqlarda ham milliy adabiyotimizga yuksak hurmat va sadoqat mujassam.

Umumta'lim maktablarini ham vatan va millat manfaatini yo'lida umrini tikkan olimlarimiz, millatimiz fidoyilari nomi bilan atashimiz yoshlarda ona tilimiz, adabiyotimiz, tariximiz, milliy qadriyatlarimizga mehru muhabbatni yanada oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Muxtasar qilib aytganda, ona tilimiz sofligini birgalikda asrab qolishimiz shart va zarur!

Davlatimiz yetakchisining “Ona tilimiz — milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Davlat tiliga bo'lgan doimiy e'tibor va g'amxo'rlik mamlakatimizda bundan buyon ham izchil davom ettiriladi”, degan so'zlari har birimizga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek tili asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan ma'naviy xazinadir. Bu xazinani asrash hamda avlodlarga sofligicha yetkazish uchun har birimiz mas'ulmiz. To hayot ekanimiz, bu mas'uliyatni sharaf deb bilmog'imiz shart.

Salomlashayotgan robotlar, dronlar, ko'tarish moslamalari, muqobil elektr energiyasi ishlab chiqaradigan jihoz va uskunalar...
Bunday zamonaviy texnika va qurilmalar ixtirochilari — kasb-hunar texnikumlarida ta'lim olayotgan yoshlar.

Farg'ona shahrida kasblar festivali bo'lib o'tdi. “Kasbiy salohiyat — kelajak poydevori” shiori ostida tashkil etilgan tadbirga texnikum o'quvchilari tayyorlagan amaliy ishlar va mahsulotlar ko'rgazmasi tashkil etildi. “Mexatronika va robototexnika”, “Elektr jihozlari”, “Zamonaviy muhandislik”, “Sartaroshlik va modelyer”, “Qandolatchilik”, “Moda va dizayn”, “To'qimachilik mahsulotlari” kabi pavilyonlarda o'quvchilarning ishlari namoyish etildi. Ish beruvchilar bilan ochiq muloqotlar, startap va innovatsion loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Bu yerga bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi o'quvchilari bilan keldik. Ular o'zi yasagan buyum va mahsulotlarni namoyish qilyapti, — deydi Marg'ilon shahridagi 4-texnikumning kasbiy ta'lim ustasi Obidxon Saydulloyev. — Shuningdek, festivalda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ham qatnashyapti. Ularga texnikumlardagi shart-sharoit, ta'lim yo'nalishlari haqida ma'lumot berilyapti. Bugun yoshlar texnikumini tayyor malakali kadr bo'lib tamomlayapti. Buni ko'rgazmaga qo'yilgan texnikalar misolida ham ko'rish mumkin. Yana bir misol: o'quvchilarning “Burhoniddin Marg'inoniy” ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi qurilishida faol ishtirok etdi. Bu — biz uchun faxr.

Keyingi yillarda kasb-hunar texnikumlarida o'qishni istovchi yoshlar safi kengayib boryapti. Chunki bugun texnikumda o'qib, qisqa muddatda kasb egallashi mumkin. Qolaversa, dual ta'lim asosida muqim ish joyi va daromadga ega bo'lish, xorijda o'qib-ishlash imkoni mavjud. Texnikumda kundalik turmushda nihoyatda

OYNING OB-HAVOSINI O'RGANAYOTGAN O'ZBEK YOSHLARI

Farg'onalik yigit-qizlar startap loyihalarini taqdim etdi

kerakli sohalar — santexnika, elektromontaj, montaj, logistika kabi yo'nalishlarda malakali kadrlar tayyorlanadi. Nemis ta'lim dasturi asosida “Ausbildung” tizimi joriy etilgan. Mazkur tizim nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda kasbni chuqur o'rgatishga qaratilgan. Unga muvofiq, yoshlar ikkinchi va uchinchi kursni Germaniyada o'qishi, dual ta'lim shaklida tahsil olib, ishlashi mumkin.

Yurtimiz yoshlarining innovatorlik va raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati tahsinga sazovor. Bunday yigit-qizlar orasida o'quvchilik paytida yig'it jidid salohiyati bilan tilga tushayotganlar ham ko'p. Ana shunday iqtidorli yoshlardan biri Bag'dod tumanidagi 2-texnikum o'quvchisi Sayyodbek Murodjonov. U bolaligidan kitob o'qish, rasm chizish, turli o'yinchoqlar yasashni yoqtiradi. Maktabda va texnikumda o'qish chog'ida tinimsiz izlandi, o'qib-o'rgandi. Intilishlari samara berdi. U “Green Lion” startap loyihasiaga asos solib, e'tirofga sazovor bo'ldi.

Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad Oyni o'rganish va unda inson yashashini ta'minlash uchun sharoitni yaratish, — deydi yosh taqdimotchi. — Ayni kunda ustozlar ko'magida loyihaning yakuniy bosqichi ustida ishlaymiz. Loyiha zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan. U orqali Oyda yashash mumkin bo'lgan hududlar, ularning koordinatlarini aniqlash, inson uchun yashash mumkin bo'lgan mos iqlim sharoitini yaratish maqsad qilingan. Ya'ni Oyga qo'ngan qurilma, avvalo, u yerdagi radiatsiya miqdorini aniqlaydi. Suv va tuproq sharoitini o'rganib, signal yuboradi. Qurilmaning o'ziga xos jihati uning maxsus qoplamasidir. Odattiy skafandrlar fazogirlar uchun 2-3 oy to'laqonli xizmat qila oladi. Bunday maxsus kiyimlar tannari juda qimmat. “Green Lion”dagi qoplama

esa ancha arzon. Shuningdek, uni 5-yilgacha ishlatish mumkin. Yosh taqdimotchi ilmiy izlanishlariga Yevropadagi bir nechta kompaniya qiziqish bildirmoqda. Bu yerda faqat fazoni o'rganishgina emas, balki tibbiyot, turizm,

montyorlik yo'nalishida o'qiyman. Darsdan so'ng aholiga elektromontaj ishlari bo'yicha xizmat ko'rsatamiz. Har oyda 5-6 million so'm qo'shimcha daromad topib, kasbiy mahoratimni oshirib boryapman.



qishloq xo'jaligi, sanoat kabi qator sohalar bo'yicha ham istiqbolli innovatsion ishlanmalar ustida ilmiy izlanishlar olib borilyapti.

Kasblar festivalida gibrid, ya'ni quyosh va shamoldan elektr hosil qiluvchi kichik stansiya loyihasi bilan qatnashyapmiz, — deydi Uchko'priq tumanidagi 2-texnikum o'quvchisi Davlatjon Muhammadsoliyev. — Bu ishlanmani ko'chadagi chiroqlar va svetforlarga ulab, sinab ko'rdik. Natija yaxshi. Kelajakda aholi xonadonlari, ko'p qavatli uylarga ham o'rnatamiz. Elektr

Farg'ona tumanidagi 2-texnikumda asalarichilik yo'nalishida o'nlab yoshlar tahsil olmoqda. Sababi, hududdagi tabiiy iqlim sharoiti asarlari oilalarini tez ko'paytirish, yaxshi hosil, daromad olish imkoniyatini beradi.

— Texnikumda asalarichilik yo'nalishida o'qiyapman, — deydi Faxriddin Masaydinov. — Bu shonang ilmiy, nazariy jihatlarini o'rganmay turib, biror natijaga erishib bo'lmaydi. Ayni kunda 120 qutida 240 ta asarlari oilasini parvarish qilyapman. O'tgan yili 3 tonna asal oldik. Serdaromad hunariga qiziquvchilar

ko'p. Bilganlarimiz tengdoshlarimga ham o'rgatayman. Texnikumda asarlari oilalarini parvarishlash, kasalliklariga qarshi kurashish, mahsulot olish, qayta ishlash, zarur jihozlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha sharoit yaratilgani sohani puxta o'rganishimizda qo'l kelyapti. Festivalda ishimizga qiziqqan yuqori sinf o'quvchilariga asalarichilikning o'ziga xos jihatlari haqida tushuncha berdim, o'rganishga taklif qildim.

Vatanparvarlik, yurgaga sadoqat ruhida qo'shiqlar shukhi bilan ko'rgazma pavilyonlarini aylanamiz. Yoshlar ko'zida ishtiyok, bilimga chanoqlik, g'ayrat-shijoat mujassam ekanini anglash qiyin emas.

Festivalga kelganidan juda mamnunman, — deydi Farg'ona tumanidagi 54-maktab o'quvchisi Turg'unoy Elmurodova. — Bu yerda yasagan buyum va mahsulotlarni ko'rib, texnikumda o'qish, hunar o'rganish istagim qo'yiladi. Biz, yoshlar uchun katta imkoniyatlar berilyotganidan, o'z iste'dodimiz, salohiyatimizni namoyon etishga yaratilgan sharoitlardan mamnunmiz. Kelajakda qaysi kasbni tanlamaylik, yurtimiz rivojiga hissa qo'shish, xalqimizga xizmat qilish bosh maqsadimiz bo'lib qolaveradi.

O'zbekiston — yoshlar mamlakati. Yurtimizda yoshlarning iqtidor va salohiyatini to'la yuzaga chiqarish uchun barcha sharoit yaratilgan. Ta'limga eng ilg'or texnologiyalarni joriy etib, raqamlashtirish, axborot texnologiyalarini hayotga tatbiq qilishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Bular o'z o'rnida yurt yoshlarini yangi maqsad va g'oyalari sari da'vat etmoqda.

— Texnikumimizda AT klasteri faoliyati yo'lga qo'yilgan, — deydi Quva tumanidagi 1-texnikum o'quvchisi Ibrohimjon Shuhratov. — Har yili 100 nafar yosh dasturlash,

xorazmcha shevalarni rus tilidan kirib kelgan so'zlariga qo'pol ravishda almashtirib, davrlar nafasi, ajdodlarning betakror ovozlarni befarqlik to'zlonariga tashlamoqdamiz.

Tilimizdagi ena, nana, biyi, acha, oya, buva, bo'la, buvak, jezda, jijji, jorqin kabi minglab sheva so'zlarining yaqin orada yo'qolishiga yuz tutayotgani bor gap. Shevalar ham davrlarni o'ziga xos rishtalar bilan bog'lab turadigan tilla zanjirlar ekanini unutmaylik. Agar sekin-asta shevalar boy berilsa, ularning o'rini to'ldiradigan so'zlarni hech qachon topolmaymiz.

Alifbodagi o'lda-jo'lda islohotlar, darsliklardagi sifatsizliklar so'nggi yillardagi talaffuzimiz to'g'ri yozish qoidalarimizgacha buzib tashlamog'da. Ism-shariflarda Nahalov — Naxalov, Xolto'rayev — Xalturayev, Jumayev — Djumayev, Boltaboyev — Baltabayev, G'oziyev esa Gaziyev bo'lib ketgani, Razzakov, Aksakalov, Tuxliyev, Erdankulov, Kurmasov kabi familiyalarning qanday paydo bo'lib qolganiga qiziqsangiz, barisida o'zbek tiliga behurmatlik va shafqatsizlik hosilasini ko'rasiz.

Yana bir gap. Mafkura insonning go'dakligiga tafakkuriga nima ekan, o'sha bilan bir umr yashab qoladi. Bola maktabi nomi bilan atalgan adib, olim, mutafakkirning kimligini bilgach, uni ulug'laydi, u bilan g'ururlanadi, unga o'xshagisi keladi. Mustaqillikdan keyin maktablarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Furqat, Muqimiy, Qori Niyoziy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon va boshqa o'zbek adiblari, olimlari nomi bilan yuritila boshlandi. Hozir esa maktablarimizdan nomlar olib tashlanib, raqamlab qo'yildi. Bu qanchalik to'g'ri, bilmadim?

Menimcha, maktablarimizni o'z ulug'larimiz nomi bilan atash, bu, eng avvalo, millatimiz ma'naviyatiga, fanimiz, adabiyotimiz, tariximizga, tilimizga hurmat bo'lar edi. O'quvchi birinchi sinfdalidayoq maktab darvozasi peshoqtiga buyuklarimiz nomini tilimizda o'qisin, faxrlansin va ularga o'xshashni orzu qilsin. O'zbek bolalarning tili o'z ulug'larimizning nomi va asarlari bilan charxlansin.

Atoqli shoir va adiblarimiz nomidagi ijod maktablarida tahsil olayotgan iste'dodlarning o'z maktablari nomi bilan g'ururlanishini ular bilan shubhatlarda eshitib, qovonchga to'lamiz.

Muhammad Rizo Ogahiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroym Yusupov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarining o'quvchilari ehsiyotqan yutuqlarda ham milliy adabiyotimizga yuksak hurmat va sadoqat mujassam.

Umumta'lim maktablarini ham vatan va millat manfaatini yo'lida umrini tikkan olimlarimiz, millatimiz fidoyilari nomi bilan atashimiz yoshlarda ona tilimiz, adabiyotimiz, tariximiz, milliy qadriyatlarimizga mehru muhabbatni yanada oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Muxtasar qilib aytganda, ona tilimiz sofligini birgalikda asrab qolishimiz shart va zarur!

Davlatimiz yetakchisining “Ona tilimiz — milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Davlat tiliga bo'lgan doimiy e'tibor va g'amxo'rlik mamlakatimizda bundan buyon ham izchil davom ettiriladi”, degan so'zlari har birimizga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek tili asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan ma'naviy xazinadir. Bu xazinani asrash hamda avlodlarga sofligicha yetkazish uchun har birimiz mas'ulmiz. To hayot ekanimiz, bu mas'uliyatni sharaf deb bilmog'imiz shart.

robototexnika, grafik dizayn va xorijiy til bo'yicha o'qitilmoqda. Ustozlarimiz bilan birga turli loyihalar ustida ishlayapmiz. Misol uchun, hozir “Amazon” kompaniyasi bilan birga logistika yo'nalishida faoliyat yuritaymiz. AQSHda yuk tashish bilan shug'ullanayotgan yurtdoshlarimizga shu kompaniyadan buyurtma olib beramiz. Ularga borar manzilini ko'rsatib turamiz yoki yuk tashilotlari, tashish va yetkazish vaqti kabi ma'lumotlarni taqdim qilamiz.

Ayni paytda Farg'ona viloyatidagi 63 ta kasbiy ta'lim tashkilotida 59 mingga yaqin yosh 161 kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim olmoqda. Bu raqamlar kasblar turi, o'quvchilar soni, dual ta'lim hisobiga yildan yilga ortib bormoqda.

— Prezidentimizning “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” g' qarori bu boradagi ishlar sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini bermog'da, — deydi Farg'ona viloyati kasbiy ta'lim boshqarmasi boshlig'i To'yichboy Boymatov. — Mazkur qaror kasbiy ta'limni zamon talabari, xalqaro standartlar va mehnat bozori ehtiyojlariga uyg'unlashtirishga qaratilgan. Dual ta'lim asosida o'qitish ustuvor vazifalarimizdan. Hozir yoshlarni 38 kasb bo'yicha tayyorlash uchun 53 ta texnikum 2184 ta korxonaga bilan hamkorlik qilmoqda. Jarayonga 11 ming 167 o'quvchi qamrab olingan. Shuningdek, 6 ta texnikumda 536 o'quvchi “Pearson” (Buyuk Britaniya), “Askaniya Bildung” (Germaniya), “GloboGate Concept AG” (Shveysariya), “Avestos” (Germaniya) kompaniyalari bilan hamkorlikda xalqaro dasturlar asosida o'qitilmoqda. Viloyatimizda ilk bor o'tkazilayotgan “Kasb va mehnat kuni” tadbiri ta'lim sohasidagi islohotlar, erishilgan yutuqlar, oldimdagi turan vazifalarni keng jamoatchilikka namoyish etish imkonini bermog'da.

Festivalda Farg'ona viloyati hokimi ham ishtirok etib, texnikum o'quvchilari bilan shubhatlashdi. Ular taqdim etgan startap loyihalar, tashabbuslar, texnikumlarida yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va innovatsion yo'nalishlar bilan tanishdi.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



O'ZBEKISTON MAG'RUR O'YNAydi FUTBOL!

Xudo bor xalqimning diyonatida,
Polvonlar maydonda kurashar halol.
Ko'krak kerib jahon chempionatida,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Mardlik tarbiyada, botirlik qonda,
Yulduzli onlarga juda ko'p misol.
Bir Vatan, bitta xalq bo'lib maydonda,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Uchar burgutlar bor qutlug' makonda,
Tog'lar haybatiga osmon qolar lol.
Ellarni hayratga solib jahonda,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Darvozabon — qulf, himoya — qalqon,
Alpomishlar zoti topmaydi zavol.
Na'ra tortib, hamla qilar sher, qoplon,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Raqib jamoalar qoladi shoshib,
Hujumchilar urar darvozaga gol.
Ketma-ket yutug'i finalga oshib,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Muxlislik qilar xalq bir jon-u bir tan,
G'alaba naqd bo'lar, qolmaydi savol.
G'olib o'g'lonlarin sharafilar Vatan,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Bitta stadionda birlashar dunyo,
Muxlislar hayqirar: "Gol ur, yana gol!"
Osmondan yulduzlar sochadi ziyo,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Prezident Siz bilan qilar iftixon,
Qo'llab-quvvatlaydi shavkatli diyor,
Vatan, xalq yagona yurtga omad yor,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Davlat bayrog'imiz chiqar falakka,
Madhiya yangrar, yurt yig'lar — ajib hol.
Oltin medal loyiq oltin yurakka,
O'zbekiston mag'rur o'ynaydi futbol!

Rustam MUSURMON,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri



Agar bellashuvda qatnashayotganlar mahalladosh bolalar yoki sinfdoshlar bo'lsa, ayni holat oriyat bilan bog'lanib ketadi. Ularga muxlislik qilish butunlay boshqacha taassurot uyg'otadi. Agar o'z milliy terma jamoangizni qo'llab-quvvatlab turgan bo'lsangiz, bu endi butunlay boshqa holat. Ushbu muxlislik ortida yuragingizdagi Vatanga sadoqat, xalqparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari bo'y ko'rsatib turadi.

Shu bois, muxlis eng ko'p bo'lgani uchun "millionlar o'yini" nomini olgan futbolda muxlislar "12-futbolchi" deya ta'riflanadi.

Mana, 2026-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatiga ham sanoqli kunlar qoldi. Soat millat o'zbek futbolsevar muxlislarining yurak urishi ritmiga mos tarzda urmoqda. Ko'pchilik, xususan, xalqimiz allaqachon kun sanay boshlagan. Chunki bu yilgi chempionat o'zbekistonliklar uchun o'zgacha ahamiyatga ega. Terma jamoamiz o'z tarixida ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Xalqimizning uzoq yillik orzusi ro'yog'a chiqdi.

Joriy yilgi jahon chempionati o'zbekistonlik futbol muxlislari uchun to'ydek gap. Shodiyona bo'lganda ham oddiy emas, naq 34 yil kutilgan hodisa. Shunday ekan, avvalo, barchamiz bu lahzalar shavqidan bahramand bo'lishimiz kerak.

Har to'rt yilda bo'lib o'tadigan futbol bo'yicha jahon chempionatiga har bir davlat alohida tayyorgarlik ko'radi. Nafaqat futbolchilar, balki "12-futbolchi" bo'lmish muxlislar jamoasi ham terma jamoani qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, dunyodagi millionlab kishilar nazdida mamlakatning ijobiy imijini yaratishga urinadi. Umuman olganda, maydon tashqarisidagi ijobiy ma'nodagi bahs maydondagidan hech ham qolishmaydi.

Muxlislik madaniyati millat ma'rifatini ko'rsatadi

Esimda, 2022-yilda Marokash muxlislari

terma jamoalar muxlislarining o'ziga xos bunday harakatlari tarix zarvarlariga o'chmas bo'lib yoziladi.

Masalan, yaponlarning tartib-intizomga qattiq amal qilishi haqida so'z borsa, ko'pchilik 2014-yili Braziliyada o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionatida Yaponiya terma jamoasi muxlislari o'yindan keyin butun maydonni tozalab ketganini xotirlaydi. O'shanda dunyo matbuoti bu voqeani yapon xalqining o'ziga xos madaniyati sifatida baholab, qayta-qayta materiallar e'lon qilgan edi. So'ng yaponiyalik muxlislar buni ezu odatga aylantirdi. Ular 2018 va 2022-yillardagi jahon chempionatlarida ham bu ishni takrorladi. Bunday voqealar ham mamlakat, ham millat imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, futbol bo'yicha jahon chempionatiga birinchi bor chiqayotgan terma jamoalar va davlatlar o'zlarini alohida bir xususiyatlari bilan namoyish etishga urinadi. Sababi dunyo bo'ylab millionlab insonlar tomosha qiladigan bu turnir mamlakatlarning imijini ko'tarish va dunyoga o'z nomini tanitish uchun qulay imkoniyat hamdir. O'zbekiston

football's coming home" so'zlarini qo'shish qilib kuyladi. Ular ko'chalar va stadionlarni to'ldirib, shu jumlamani takrorladi. Bunga Angliyaning futbol vatani sifatida e'tirof etilishi sabab. O'sha turnirda yana bir qo'shish ko'pchilikning qulog'i ostida jaranglab qoldi. Bu Peru muxlislari kuylagan "Contigo Peru" ("Sen bilan, Peru") taronasi edi. Peru jamoasi turniri erta yakunlagan bo'lsa-da, chempionat so'ngiga qadar perulik muxlislar bu taronani kuylashdan so'xtamad. Natijada u mazkur chempionatning eng mashhur qo'shig'iga aylandi.

Birinchi bor jahon chempionatida qatnashayotgan, g'olib bo'lish ehtimoli juda kam va atigi 360 mingdan ortiq aholiga ega davlat muxlislarining jahon chempionatida butun dunyo e'tiborini o'ziga qaratga olgani kutilmagin hodisa bo'ldi. Chunki chempionatga kelganlar soni butun boshli davlat aholisidan ham ko'p edi. Avvalo, futbolchilarning mahorati o'yini hamda muxlislarining o'z sportchilarini o'ziga xos tarzda qo'llab-quvvatlashi dunyo e'tiborini ushbu terma jamoaga qaratishga majbur qildi. Islandiya muxlislari "Viking clap" (vikinglar qarsagi) va "Hú!" hayqirig'ini

TERMA JAMOAGA MUHLISLIK – YURTGA MUHABBAT IFODASI

Qatardagi chempionat bezagiga aylangandi. Aynan ushbu terma jamoaning guruh bosqichidan chiqishida muxlislarining qo'llab-quvvatlovi muhim rol o'ynagan. O'shanda

terma jamoasi bu yil "katta to'y" deb ta'riflanayotgan ushbu xalqaro tadbirga o'ziga xos to'yona bilan borishi kerak. Jamoamiz a'zolari bunga jiddiy tayyorgarlik ko'rmoqda. Masalan,



bu terma jamoa muxlislarining qizg'in va o'z o'rnida tartibli muxlislik qilishini jahon ommaviy axborot vositalari, xususan, mashhur "Reuters" va "The Guardian" nashrlari alohida yoritgan edi. Bu holat nafaqat Marokash, balki butun Afrika qit'asi aholisi to'g'risida ijobiy taassurot paydo bo'lishiga zamin hozirlagan ta'kidlanadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida futbol bo'yicha jahon chempionatiga qatnashayotgan yagona mamlakat. Qo'shnilarimiz ham mazkur musobaqada sportchilarimizga muxlislik qiladi. Aslini olganda, Markaziy Osiyo xalqlari har bir xalqaro musobaqada bir-birini qo'llab-quvvatlab, muxlislik qilib keladi. Bunda so'nggi yillarda yanada rivojlanib borayotgan yaxshi qo'shinchilik, birdamlik va hamjihatlik siyosatining ham ahamiyati katta.

Birgina misol: yurtdoshlarimizning Parijda bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlaridagi tarixiy g'alabasiga bag'ishlab, qozog'istonlik xonandaning o'zbek sportchilarini madh etib qo'shish kuylayotganini ko'rib qoldim. Videolavha ostidagi izohlarda qozog'istonlik birodarlarimiz qoldirgan samimiy qutlovlar esa ikki karra quvonitirdi.

Shu bois, futbol va boshqa sport turlarida muxlislik madaniyati juda ham muhim. Ayrim o'yinlarda qaysi jamoalar to'p surgani, hatto hisob qanday bo'lgani ham eslanmaydi, aksincha, muxlislarining o'zini qanday tutgani xotirlanadi. Ayniqsa, jahon chempionatlarida

terma jamoamiz yetakchisi Eldor Shomurodov mundialga Turkiya chempionatining to'purari sifatida bormoqda. Hamyurtimiz yakunlangan mavsumda 22 ta gol va 5 ta assist qayd etib, liganing 2025/2026-yilgi mavsumi to'purariga aylandi.

Dunyoning top klublaridan biri "Manchester Siti"da to'p suradigan hamyurtimiz esa jamoasi bilan mavsum Angliya liga kubogi va Angliya kubogi sovrindori bo'ldi. Futbol mutaxassislari ta'bir bilan aytganda, terma jamoamiz a'zolari chempionatga "yuqori forma"da yo'l olmoqda.

Qablardan chiqqani qablarga yetib boradi

Inson eng hayajonli va hissiyotlarga to'la lahzalarida, albatta, she'r o'qiydi, qo'shish kuylaydi yoki musiqa chaladi. Futbol o'yini jarayoni ham xuddi shunday hayajonli daqqalardan. Jahon chempionatlarida mamlakatlar o'z shiori bilan ham o'zligini namoyon etadi. Futbolchilar va muxlislar bu so'zlar va ohanglar og'ushida birlashadi. Jahon chempionatlarida barchaning yodida qolgan shior, qo'shish va kuyni bugun ehsitak ham darhol o'sha paytlar xayolimizga keladi.

Masalan, 2018-yilda Rossiyada bo'lib o'tgan futbol bo'yicha jahon chempionatiga borgan angliyalik muxlislar "It's coming home,

o'ylab topdi. Ya'ni ritmik qarsaklar va vahimali "Hú!" qichqirig'i orqali dunyo OAV hamda millionlab insonlarning e'tiborini jalb qila oldi. Hatto bugun onlayn futbol o'yinlarida Islandiya terma jamoasini tanlab o'ynasangiz, virtual futbolchilar hamda muxlislar ham aynan shu harakatlarni namoyish etadi.

Boshqa yillardagi jahon chempionatlaridan ham mana shunday misollarni keltirish mumkin. Masalan, 2010-yilgi jahon chempionati esga olinsa, darhol qulog'ingizda Janubiy Afrikaning o'ziga xos cholg'usi — vuvuzela sadosi yangraydi. Yoki bo'lmasa, 2022-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatidagi "Dima Maghrib" ("Doim Marokash") shiori va Argentinaning "Muchachos" qo'shig'i yodga tushadi. Aslida, barcha terma jamoalar muxlislarining bu kabi shiorlari, qo'shirlari va kuylari mavjud. Ammo yuqorida sanab o'tilganlari xalq va millat tarixiga, qadriyatlar ildiziga chuqurroq ulangani hamda o'ziga xos ijodkorlik mahsuli ekanini ajralib turadi. Bu esa millat vakillari qalbidan chiqqan nidoning boshqa insonlar qalbiga ham chuqur kirib borishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yurtdoshlarimiz — o'zbek futbol muxlislari ham bu yilgi chempionatda o'zining yuksak muxlislik madaniyatini namoyish etishiga, san'at asari darajasidagi kuy-qo'shilar va shiorlar bilan butun dunyo e'tiborini o'zlariga qaratishga umid qilamiz.

Bunda, albatta, o'zbek ijodkorlarining o'rmi beqiyos. Birinchi navbatda, badiiy so'z san'ati ustalari hamda sohir ovozi sohibi bo'lgan san'atkorlarimiz O'zbekiston terma jamoasiga bag'ishlangan she'ru qo'shirlari bilan yurtdoshlarimizga jo'rovoq bo'ladi.

Sanoqli kunlardan so'ng o'zbek futbol muxlislarining ko'p yillik orzusi bo'lgan jahon chempionati sari yo'l olinadi. Bir so'z bilan aytganda, sport sohasidagi yangilanishlar samarasi o'laroq, o'zbek futbolini haqiqiy oltin davriga qadam qo'yadi.

Albatta, o'yinlardan tayyorlangan videolavhalar, tasvirlar va futbolchilarning intervyulari bu kunlarning unutilib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Ammo muxlislarimiz zavq-shavq va quvonchi, shuningdek, ayni kunlar haqida yaratilgan badiiy asarlar va kuy-qo'shirlariga mazkur lahzalaridagi hissiyotlarni kelajak avlodlar qalbiga butunligicha ko'chira oladi. Qolaversa, bu tuyg'ular boshqa millat vakillarining qalbiga ham aks etishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
30761 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Oqog'uz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy